analitik, jadval, grafik va so'z usullari bilan berilishi mumkin ekan. Funksiyalar berilishining eng ko'p uchraydigan usuli analitik usuldir. Bu usul matematik analizda juda ko'p ishlatiladi. Jadval usulining qulayligi shundan iboratki, argumentning u yoki bu aniq qiymatlarida, funksiyaning hisoblamasdan, uning qiymatlarini aniqlash mumkin. Biroq jadval usulining qulay bo'lmagan tomoni shundan iboratki, argumentning o'zgarishi bilan funksiyaning o'zgarish xarakterini to'liq aniqlab bo'lmaydi. Funksiyaning grafik usulda berilishi ilmiy tadqiqotlarda va hozirgi zamon ishlab chiqarishi jarayonlarida keng qo'llaniladi. Masalan, tibbiyotda uchraydigan elektrokardiogramma grafigi—yurak muskullaridagi tok impulslarining vaqt bo'yicha o'zgarishini ko'rsatadi.

Foydlangan adabiyotlar ro'yxati:

1. GAZIYEV, I. ISRAILOV, M. YAXSHIBOYEV FUNKSIYALAR VA GRAFIKLAR O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan "VORIS-NASHRIYOT" Toshkent –2006.

2. <http://edarslik.uz/algebra7/mavzu/rd.htm>

3. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Funksiya_\(matematika\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Funksiya_(matematika))

**UCHUVCHISIZ UCHUNCHI APPALARNI BOSHQARISH VA
ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH SIFATINI OSHIRISHNING
ZAMONAVIY DASTURIY YECHIMLARI.**

**СОВРЕМЕННЫЕ ПРОГРАММНЫЕ РЕШЕНИЯ ДЛЯ
УПРАВЛЕНИЯ ПРИЛОЖЕНИЯМИ БПЛА И ПОВЫШЕНИЯ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ.**

**MODERN SOFTWARE SOLUTIONS FOR MANAGING UAV
APPLICATIONS AND IMPROVING THEIR EFFICIENCY.**

Sattorov Rasul Ural o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

Universiteti magistratura tinglovchisi

Jalolov Alisherjon Abduhomid o'g'li,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

Universiteti magistratura tinglovchisi

Jalolovalisher3363336@gmail.com

Аннотация: Ushbu maqolada hozirda biz turli sohalarda qo'llayotgan dronlar uchun samarali va zamonaviy dasturiy ta'minot vositalari, ularning o'ziga xos sususiyatlari va ular orqali biz erishishimiz mumkin bo'lgan qulaylik va imkoniyatlar haqida keltirib o'tilgan.

Калит so'zlar: uchuvchisiz uchuvchi qurilmalar, dron, dasturiy ta'minot, DJI FlightHub Universal Platform, o'rganish, ma'lumotlarni qayta ishlash, DJI FlightHub Drone boshqaruv tizimi.

Аннотация: В этой статье описаны эффективные и современные программные средства для дронов, которые мы в настоящее время используем в различных областях, их конкретные преимущества, а также удобство и возможности, которые мы можем с их помощью достичь.

Ключевые слова: дроны, дрон, программное обеспечение, универсальная платформа DJI FlightHub, обучение, обработка данных, система управления DJI FlightHub Drone.

Abstract: This article describes the efficient and modern drone software that we currently use in various fields, their specific advantages, as well as the convenience and capabilities that we can achieve with them.

Keywords: drones, drone, software, DJI FlightHub universal platform, training, data processing, DJI FlightHub Drone control system.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda deyarli barcha sohalarda uchuvchisiz uchuvchi apparatlarni tobora ko'proq uchratmoqdamiz. Hoh u harbiy soha, hoh san'at, yoki qishloq xo'jali, umuman barcha sohalarda bu qurilmaga bo'lgan talab oshib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Albatta bu bejizga emas, ushbu ajoyib qurilmadan inson qilishi qiyin bo'lgan ishlarni tezda va samarali bajarishda foydalanish mumkin.

Bunday qurilmalar ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Fan-texnika taraqqiy etar ekan yangidan yangi texnologiyalar hayotimizga kirib kelishi tabiiy albatta.

Uchuvchisiz uchuvchi qurilmalar texnik imkoniyatlari va unga o‘rnatilgan dasturiy vositalar orqali unga yuklatilgan vazifalarni bajaradi. Undan qayday maqsadda foydalanishimizga qarab uning turini, modelini, narxini tanlaymiz. Dunyoda bu kabi qurilmalardan harbiy sohada haqiqiy poyga ketyabdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buni, yaqin vaqt oraliq‘ida Rossiya-Ukraina orasida sodir bo‘layotgan, Vladimir Putin ta‘biri bilan aytganda maxsus harbiy amaliyotlarda sodir bo‘layotgan jarayonlarni kuzatib boruvchi har inson tushunib bo‘ldi. Turkiyaning o‘sha mashur “Bayraktari” yoki ko‘chilikka uncha tanish bo‘lib ulgurmagan ammo hozir Rossiya armiyasining sevimli qirg‘in quroliga aylangan Eron Islom Respublikasining “Shahid” uchuvchisiz uchuvchi qurilmalari dunyo diqqat markazini o‘ziga rom etib ulgurdi.

Ammo bu maqolamizda biz harbiy sohada emas balki fuqarolik yo‘nalishlarida qo‘llanilayotgan dronlar uchun ishlab chiqilgan bir nechta dasturiy maxsulotlar bilan tanishamiz va tahlil qilamiz. Chunki mukammal va samaralari dasturiy vositalar orqali biz dronlarni oson boshqarishimiz, oldimizga qo‘ygan maqsadga tezda erishishimiz mumkin bo‘ladi.

Shunday qilib, siz to‘g‘ri dasturiy ta‘minot foydalanish orqali dronning qanday kuchli tomonlarini oshirishingiz mumkinligini tushunasiz. Ammo ushbu maqolamizda qanday rasmiy dron dasturini o‘rnatish tavsiya etilishi haqida ko‘proq ma‘lumot bermoqchimiz. Zamonaviy dasturiy ta‘minot texnologiyalari dronni qulay boshqaruvini va u bilan ishlashning istalgan bosqichida kvadrokopterni boshqarish xavfsizligini ta‘minlashi mumkin.[1]

Avtonom parvoz yoki oldindan dasturlashtirilgan parvoz rejalariga erishish uchun uchuvchisiz uchuvchi qurilmalarni kompyuter yordamida boshqarish mumkin. Kompyuter masofadan boshqarish pultidagi stantsiya sifatida ham ishlatilishi mumkin. Ba‘zi ilovalar UUA parvozini boshqarishi, hatto smartfon yordamida ham buni amalga oshirish imkoniyatlarini bera olishi mumkin. Quyida dasturlashtiriladigan va kompyuter tomonidan boshqariladigan UUA parvozini qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar, ochiq manbali dasturiy ta‘minot va jamoalarning namunalari keltirilgan.

- **AdaPilot** - avtonom parvoz uchun vositalar va kutubxonalar, yuqori darajadagi va professional PUA xavfsizligi uchun.
- **ArduPilot** - Arduino tomonidan boshqariladigan havo samolyotlari va samolyotlari, yer usti roverlari va suvga asoslangan RC subkompaniyalari uchun avtopilot dasturi.
- **CleanFlight** - eng zamonaviy parvoz texnikasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan parvozlarni boshqarish dasturi.
- **DroneCode** - katta tashkilotlarga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan to‘liq uchuvchisiz parvoz echimi.
- **DroneKit** - MAVLink protokoli yordamida dronlar bilan aloqa qilish uchun ishlatiladigan Python dasturlash tilidagi API.
- **DronePan** - tanlangan uchuvchisiz modellardan foydalangan holda 360 daraja panoramali suratga olishga yordam beradigan iOS uchun dastur.

- **Dronin** - avtonom uchuvchisiz uchish va FPV (birinchi shaxs ko‘rinishida) poyga uchun dasturiy ta‘minot to‘plami.
- **Flone** - Android smartfonini dronga aylantiradigan dastur va apparat to‘plami, uni ikkinchi Android qurilmasi boshqarishi mumkin.
- **Intel Aero** - Intel tomonidan ishlab chiqilgan Python dasturlash tilidagi avtonom parvoz dasturiy ta‘minot to‘plami.
- **LibrePilot** - boshqarish, barqarorlashtirish, masofadan boshqarish va uchuvchisiz samolyotlarni avtonom uchish uchun dasturiy ta‘minot.
- **NVIDIA Redtail** - NVIDIA tomonidan ishlab chiqilgan dronlar va roverlarni avtonom ravishda tuzilmaydigan relyef orqali boshqarish uchun dastur.
- **PX4 avtopilot** - uchuvchisiz samolyotlarni boshqarish uchun dasturiy ta‘minot to‘plami va uni qanday qilib noldan qurish haqida ma‘lumot.
- **PaparazziUUA** - Avtopilot tizimlari va havo va yer usti uchuvchisiz samolyotlar uchun yer usti stantsiyalari dasturi.

Agar yaqin o‘tmishdan boshlaydigan bo‘lsak UUA foydalanish sohalari asosan ikki turga, ilmiy va amaliy sohalardir. Qo‘llanilishiga ko‘ra dronlar harbiy va fuqarolik sohaslarida qo‘llaniladiganlarga bo‘linadi. Tarixga biroz murojaat qilsak, 2010 yildan beri fuqarolik dronlari tez sur‘atlar bilan mashhur bo‘lib borayotganini ko‘rish mumkin va 2020 yilga kelib esa sanoat kvadrokopterlarining yarmidan ko‘pi qishloq xo‘jaligi yoki infratuzilma loyihalarini ta‘mirlash bilan shug‘ullanishda qo‘llanilyabdi. Shu o‘rinda agar joiz bo‘lsa dronlarga dasturiy mahsulotlar bilan shug‘ullanuvchi Rossiyaning AEROMOTUS kompaniyasi mavjudligi va MDH davlarida qo‘llanilayotgan dronlar uchun uning dasturiy mahsulotlari keng tarqalganini qayd etish lozim. [2]

Nima uchun dronga yaxshi dasturiy ta‘minot juda zarur?.

Dronlardan tijorat maqsadlarida foydalanish havaskorlikdan farq qiladi va buni qurilmalarning barcha xususiyatlarida ko‘rish mumkin. O‘rnatilgan kameralar va parvoz masofasining o‘lchamlaridan boshlab, dronni gimballar va qo‘shimcha jihozlar bilan yangilash qobiliyati shular jumlasidandir. Misol uchun, oddiy parvoz va muhim bo‘lmagan ma‘lumotlarni olish uchun professional kvadrokopterdan foydalanish shart emas. Agar siz sanoat kvadrokopterini sotib olmoqchi bo‘lsangiz, sizning holatingizda droning qaysi xususiyatlari siz uchun ustuvorligini bilishingiz va shunga mos ravishda dron sotib olishingiz zarur.

UUAlar uchun dasturiy ta‘minot qanday vazifalarni hal qiladi?

- **O‘rganish.** Simulyatorlar yordamida uchuvchisiz uchuvchi apparatni to‘g‘ri va samarali boshqarishni o‘rganuvchilar o‘rganishi mumkin. Masalan, **DJI**-da eng real parvoz simulyatori mavjud.

- **Ma'lumotlarni qayta ishlash.** Ya'ni, media ma'lumotlarini (foto va videolarni) tezroq va yaxshiroq qayta ishlash uchun maxsus ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotlar mavjud. Sun'iy intellektdan foydalangan holda video va fotosuratlar avtomatik ravishda dekodlanadi. Va ular kvadrokopter yordamida maxsimal sifatda, to'liq holda olingan video va foto tasvirlarni qayta ishlash imkoniyatini beradi.
- **Boshqaruv.** Bu dronni masofadan boshqarish va qo'nish, dronlar o'rtasidagi yoki boshqaruv markazi bilan o'zaro ta'sir qilish uchun ilova bo'lishi mumkin. Shuningdek, dronlarni boshqarish dasturi yordamida yarim avtomatik yoki hatto avtomatik parvoz rejimini ta'minlash, shuningdek, maqsadli yuklarni boshqarish mumkin. Birinchi internetga asoslangan dronlarni boshqarish ilovasi **DJI FlightHub Universal Platform** hisoblanadi.[3]

Dasturiy ta'minot, uning afzalliklarini qanday oshiradi.

Mukammal dasturiy ta'minot drondan maxsimal darajada foydalanish imkoniyatini beribgina qolmay, uning boshqaruvini ixchamlashtiradi. Misol uchun uyali aloqa vositalari orqali masofadan nazorat qilish, turli ekstremal sharoitlarda murakkab vazifalarni bajarish, foydalanuvchilar uchun qulay interfeys, obyektini tanib olishning yuqori aniqligi va h.k.z. Shu o'rinda bir jihatni ta'kidlash joizki, dronlar uchun imkon qadar litsenziyaga ega dasturiy mahsulotlar sotib olish lozim. Dasturiy ta'minot uchun, siz internet tarmoqlarida, dronlar uchun maxsus dasturiy mahsulotlarni taklif qiluvchi turli xil xorijiy firmalarni topishingiz mumkin. Misol uchun DJI kompaniyasi va boshqalar.

Kvadrokopterlar uchun dasturiy ta'minot nima?. Bu savolga javob to'g'ridan-to'g'ri UUA qanday maqsadda ishlatilishiga bog'liq. Ya'ni, sizning UUA ni ish faoliyatini yaxshilaydigan boshqaruv tizimlari, ilovalari va platformalari mavjud. DJI dasturiga FlightHub universal boshqaruv tizimi, Flight Simulator va iPad boshqaruvi uchun DJI GS PRO ilovasi kiradi.

Shuningdek quyidagi dronlar uchun mo'ljallangan turli dasturiy mahsulotlarni keltirish mumkin.

DJI Terra Pro va DJI Terra Advanced - xaritalash dasturlari.

PIX4D, ya'ni Pix4D bim bilan ma'lumotlarni qayta ishlash dasturlari.

Pix4d Fields qishloq xo'jaligi uchun moslashtirilgan UUA dasturi.

Pix4Dmapper - fotogrametriya vazifalar bilan ishlash imkonini beruvchi dasturi.

Pix4DReact - qutqaruvchilar, o't o'chiruvchilar, politsiya va favqulodda vaziyatlar vazirligi dronlari uchun dasturiy ta'minot.

Kvadrokopterlar haqida biroz to'xtalsak. **Parrot**, agrosanoat maqsadlarida ishonchli **Parrot Bluegrass** kvadrokopteri. Professional DJI kvadrokoptarlari, ular orasida **DJI Matrice 300 RTK** modeliga alohida ishonch bildirilgan. Ushbu modelni

sotib olish ilg'or sun'iy intellekt imkoniyatlariga ega innovatsion UUA egasi bo'lishni anglatadi.

DJI dan dasturiy ta'minot - parvoz simulyatori DJI Flight Simulator. Agar siz real his-tuyg'ularni boshdan kechirishni va parvoz sharoitlarini iloji boricha haqiqatga yaqinroq qilishni istasangiz, DJI Flight Simulator bu vazifani a'lo darajada bajara oladi. U eng qiyin vaziyatlarda zamonaviy dron modellarini sinab ko'rish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, har qanday ob-havo sharoitida uchuvchilarni samarali va xavfsiz o'qitish uchun.[4]

E'tibor bering, DJI kvadrokopterini Flight Simulator yordamida boshqarishni o'rganish qurilmani yo'qotish yoki uni yaroqsiz holga keltirish xavfisiz amalga oshiriladi. Albatta, sizda yetarlicha tajribaga ega bo'lmasangiz, uning imkoniyatlarini sinab ko'rish uchun ushbu trening imkoniyati bebahodir. Beshta ko'rish burchagi, uchta parvoz rejimi va boshqarish ko'nikmalingizni mukammallashtirish uchun samarali mashqlar DJI o'quv modulining ba'zi bir xususiyatlaridan xolos qiladi. Hatto bolalar ham dasturdan foydalanishlari mumkin, garchi ular uchun bu juda g'ayrioddiy o'yin-kulgi bo'lsa ham.

O'quv moduli UUALarning qaysi turlariga mos keladi?

Ushbu dastur havaskor UUALar uchun ajoyib sinov versiyasi, korxonalar uchun va energetika sanoati uchun alohida versiyalari mavjud. Oxirgi versiyada dastur amaliyotni o'z ichiga oladi, ya'ni dron yordamida elektr uzatish liniyalarini tekshirish. Korxonalar uchun versiyada esa kvadrokopterlar yordamida qidiruv-qutqaruv ishlarini mashq qilish imkoniyati mavjud. Eng oddiy versiya havaskor versiya bo'lib, u dron va bepul parvozning umumiy sozlamalarini simulyatsiya qiladi. Ammo bu funktsionallik ham dronlardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish uchun yetarli. Endi dronlar uchun bir nechta dasturiy ta'minot vositalari bilan batavsilroq tanishib chiksak.

DJI FlightHub Drone boshqaruv tizimi. DJI FlightHub dasturi sizga bitta platformadan tijorat dronlarining barcha jihatlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Aytgancha, bu professional kvadrokopterlar uchun yangi imkoniyatlar ochadigan birinchi universal platformadir. Ko'rish, rejalashtirish, tahlil qilish - siz olgan asosiy ilg'or xususiyatlar, xarid to'liq to'lanadi. Uning yordami bilan UUALarning butun parki boshqariladi. Ya'ni, ba'zi parvoz rekordlarini yoki uchuvchi guruhlarni loyihalar bo'yicha guruhlash mumkin.

U dronlarning parvoz vazifalarini real vaqt rejimida ko'rish imkonini beradi va shu ma'lumotlar asosida qurilmalardan foydalanish samaradorligi bo'yicha statistik ma'lumotlar tuziladi.

Parvoz paytida yozib olingan ma'lumotlarni DJI FlightHub veb-ilovasi yordamida ko'rish va tahlil qilish mumkin. Buning yordamida ma'lum bir hududda

yoki muayyan vazifada uskunadan foydalanishning qonuniyligini tekshirish mumkin bo'лади. Bundan tashqari, UUALardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun har doim qayd etilgan ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin.

Mos keluvchi **DJI Pilot dasturi**. Kvadrokopterlar uchun DJI Pilot mobil ilovasi xavfsiz kanallar orqali dronlardan olingan ma'lumotlarni DJI FlightHub bulutli xotirasiga tushishini ta'minlash uchun maxsus yaratilgan. Ushbu mahsulotdan foydalanib, siz uchuvchisiz samolyotning imkoniyatlarini maksimal darajada oshirasiz.[5]

DJI Pilot PE ning moslashtirilgan versiyasi. Bunday holda, ma'lumotlarni saqlash uchun shaxsiy bulutli xotiradan foydalaniladi. Dasturiy ta'minotning mukammal muvofiqligi tufayli siz Internetga ulanish va Pilot PE mobil ilovasi orqali yozib olingan ma'lumotlarni xavfsiz saqlash imkoniyatiga ega bo'ласiz.

Quyidagi UUA modellari FlightHub bilan mos kela oladi.

DJI Matrice 200 V2, 200, 600 seriyali;

Inspire 2;

DJI Mavic Pro, Mavic 2 Enterprise, Mavic 2 Enterprise Dual;

DJI Phantom 4 Pro (lekin Phantom 4 Pro+ dan tashqari), DJI Phantom 4, 4 Advanced (lekin Phantom 4 Advanced+ dan tashqari).

DJI GS PRO yordamida iPad Dronini boshqarish.

Birinchiidan, shuni ta'kidlash joizki, DJI GS PRO dasturi yordamida siz iPad orqali UUA ni osongina boshqarishingiz va parvoz marshrutini sozlashingiz mumkin, chunki DJI GS PRO dasturi foydalanuvchilar uchun yangi imkoniyatlar ochadigan qulay mobil ilovadir. Shunday qilib, bulutli saqlashning mavjudligi vazifalarning aniqligi va ishonchliligini oshirish imkonini beradi, chunki siz yozuvlarni, jumladan, parvoz marshrutlari, individual samolyotlar va uchuvchilar tarixini tahlil qilishingiz mumkin. DJI GS PRO Inspire, Matrice, Phantom, Mavic seriyalari bilan mos keladi va professional kvadrokopterlarning qaysi modellari ilovani qo'llab-quvvatlashi haqida ko'proq ma'lumot olish uchun internet tarmoqlari yoki AEROMOTUS kompaniyasining web saytlarida topish mumkin.

Ushbu dastur quyidagi sohalar uchun ishlatiladi.

- aerofotosurat;
- qurilish va arxitektura;
- qishloq xo'jaligi;
- quvurlar va kommunikatsiyalarni tekshirish;
- xavfsizlik;
- qidiruv va qutqaruv ishlari.

Dastur ishlash jarayonida turli ishtirokchilar mavjud bo'лади: foydalanuvchi, administrator va jamoa menejeri, shuningdek ularning har biri tizimda o'z huquqlariga

ega. Agent, ya'ni jamoa menejeri maksimal huquqlarga ega. Faqatgina ushbu rol kirish huquqlarini o'zgartirish va dastur litsenziyasini yangilash cheklanib qolmaydi. Axir parvozlar jurnalini yuritish sizga UUAlar bilan ishlash dinamikasini qayd etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

DJI Ground Station Pro bilan nima qilishingiz mumkin?

Siz parvozlar uchun avtomatik marshrutlarni rejalashtirishingiz va bulutli ma'lumotlarni saqlash orqali parvoz telemetriyasini boshqarishingiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, faylni saqlash buni bir mutaxassis tomonidan emas, balki bir nechta mutaxassis tomonidan amalga oshirishga imkon beradi. Shunisi e'tiborga loyiqki, ushbu ilova yordamida siz ham UUA ni boshqarish jarayonini kuzatishingiz, ham loyiha ustida ishlashingiz mumkin.

3D xaritalar yaratish. Parvoz uchun hududni tanlash va kamerani sozlash orqali ilova tufayli siz avtomatik ravishda optimal parvoz marshrutini ishlab chiqasiz. Lekin eng qiziq narsa boshqa. Marshrutni kuzatib borganingizda, 3D xaritalash ilovasiga import qilinadigan fotosuratlar olinadi. Yani dastur u tasvirga olgan ma'lumotlar orqali kompyuterda hududning 3D xaritasini yaratadi.

DJI Terra kartografik dasturiy ta'minoti. Sizga DJI Terra Advanced va DJI Terra Pro dasturlarini sotib olishni tavsiya qilamiz. Mutaxassislarning aytishicha, DJI Terra geodeziyadagi yangi tushuncha. Keling, savolni biroz tushunishga harakat qilaylik. Texnologiya xaritalarni yaratish uchun sun'iy intellektga asoslangan bo'lib, aniq vazifalarni rejalashtirish bilan marshrut bo'ylab parvoz qilish imkonini beradi.

Ya'ni siz ushbu dastur orqali dron parvozda ko'rsatilgan vazifani bajarishdan tashqari avtomatik ravishda quyidagi ishlan chiqadi:

- ma'lumotlarni yig'ish, bu ikki yoki uch o'lchovli bo'lishi mumkin;
- olingan ma'lumotlarni to'rtta ko'rsatkich bo'yicha tahlil qilish: obyekt koordinatalari, hajm, maydon va masofa.

Ya'ni, aslida siz qurilmaning qamrov zonasini raqamli formatga aylantirish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Agar kerak bo'lsa, siz modeldagi muhim tafsilotlarni ta'kidlab, olingan ma'lumotlarni tekshirishingiz mumkin.

Aslida, dasturiy ta'minot doirasi ancha kengroq va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi. Ular orasida qurilish, qishloq xo'jaligi, infratuzilmani suratga olish va aerofotosuratga olish yo'nalishlari bor. DJI Terra Pro va DJI Terra Advanced dasturlari real vaqtda 2D xaritalashni ta'minlaganligi sababli, bu ayniqsa qishloq xo'jaligi va shaharlar uchun to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligi sanoati uchun multispektral 2D rekonstruksiya muhim ahamiyatga ega, chunki u ish samaradorligini oshirish va hosildorlikni sezilarli darajada oshirish uchun ishlatilishi mumkin.[6]

Yangi professional DJI Terra dasturini quyidagilarni yaratish imkonini beradi: Haqiqiy vaqtda obyektning xaritasini yaratish (2D xaritalar, 2D rekonstruksiya) va

parvoz nuqtasining eng samarali marshrutlarni kuzatib borish. Vazifalarni shartli ravishda qamrov va ma'lumotlarni to'plash usuliga ko'ra quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin, bunda 3 asosiy turni ajratib ko'rsatish kerak: diametrli proektsiyalarni yaratish, marshrut koridori va hududiy rejalashtirish. Qurilmada esa dastur orqali siz dronning barcha parvoz xususiyatlarini, jumladan qiyaqlik burchagi, balandlik, tezlikni sozlashingiz mumkin.

Zamonaviy dronlar DJI Terra dasturiy ta'minoti va 3D rekonstruksiya funksiyasi tufayli baxtsiz hodisalar kabi hodisalarni aniq tiklash imkonini beradi. Yoki aytaylik katta obyektida qurilish ishlarining borishini kuzatib boring. Moslik nuqtai nazaridan, Phantom 4 seriyali kvadrokopterlar DJI Terra dasturiy ta'minoti bilan mos keladi.

Pix4Dfields qishloq xo'jaligi dronlardan foydalanish dasturi.

Boshida ta'kidlaganimizdek, qishloq xo'jaligida dronlardan boshqa sohalarga qaraganda tez-tez foydalaniladi. Muxtasar qilib aytganda, Pix4Dfields - bu qishloq xo'jaligi sohasidagi o'simliklar holatini kuzatish va tahlil qilish uchun dasturiy mahsulot. U soha mutaxassisleri yordamida yaratilgan bo'lib, uni qo'llashning yuqori samaradorligi haqida gapirish imkonini beradi.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki bir yuqori o'rgangan dasturiy mahsulotlar va texnologik yechimlar mamlakatimizda qo'llanilayotgan dronlarning asosiy qismi uchun mos keladi. Shu aytish lozimki har bir texnik ishlanmadan maksimal darajada foydalanish lozim va bu ko'p harajatlarning tejalishiga ham sabab bo'la oladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Elektron manba:** <https://uz1.ndespace.org/drone-0e46c0>.
2. **Elektron manba:** <https://hashdork.com/uz/artificial-intelligence-in-drones/>.
3. Ahmedov A., Taylaqov N. Informatika. AL va KHK uchun darslik. –T.: O'zbekiston, 2002. 2- nashri. -272 b.
4. **Elektron manba:** <https://www.aeroexpo.com.ru/proizvoditel-aero/programmnoe-obespechenie-drona-2042.html>
5. **Elektron manba:** <https://aeromotus.ru/programmnoe-obespechenie-dlya-bpla/>.
6. <https://alb.aero/catalog/programmnoe-obespechenie/>.

HORIJY MAMLAKATLARDA OBYEKT LARNING MUHANDISLIK- TEXNIK HIMOYALANGANLIGINI TASHKIL ETISHNING TEXNIK YECHIMLARI

ТЕХНИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ПО ОРГАНИЗАЦИИ ИНЖЕНЕРНО- ТЕХНИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ОБЪЕКТОВ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

TECHNICAL SOLUTIONS FOR THE ORGANIZATION OF ENGINEERING AND TECHNICAL PROTECTION OF OBJECTS IN FOREIGN COUNTRIES

Jalolov Alisherjon Abduhomid o'g'li,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

Universiteti Magistratura tinglovchisi

Jalolovalisher3363336@gmail.com

Rajabov Oybek Otaboyevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

Universiteti Magistratura tinglovchisi

Oybek86.r@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi qo'riqlanayotgan obyektlarning kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlardan foydalanish, biometrik texnologiyalarni xususiyatlari bo'yicha takliflar berildi.

Аннотация

В данной статье внесены предложения по использованию систем, контролирующих и управляющих процессом въезда-выезда охраняемых объектов Республики Узбекистан, и особенности биометрических технологий.

Annotation

In this article, proposals are made on the use of systems that control and manage the process of entry and exit of protected objects of the Republic of Uzbekistan, and features of biometric technologies.

Tayanch so'z va iboralar: turniket, foydalanuvchining identifikatori, magnit kartalar, viganda, shtrix-kodli kartalar, brelok-kalitlar «tach-memori», kartalar hisoblagichi. biometrik texnologiyalar, kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlar,

Ключевые слова и фразы: турникет, идентификация пользователей, магнитные карты, виганда, карты со штрих-кодом, ключи-ключи «тач-память», счетчик карт, биометрические технологии, системы контроля и управления процессом входа-выхода,

Key words and phrases: turnstile, user identification, magnetic cards, viganda, barcode cards, touch-memory keys, card counter, biometric technologies, systems for monitoring and managing the entry-exit process,

Ayni paytda dunyoda tobora kuchayib borayotgan turli ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar, yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdid soluvchi, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar, har hil turdagi huquqbuzarliklar davlat tuzilmalari zimmasiga “Barcha sa’y-harakatlar – inson qadri uchun” ustuvor g‘oyasi asosida faoliyatini yanada takomillashtirish mas’uliyatni yuklamoqda.

Davlat va jamoat xavfsizligini ta’minlash huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar, davlat nazorati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining yagona davlat tizimini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, tezkor-profilaktika tadbirlari bilan bir qatorda fuqarolar himoyasini alohida texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni bashorat etish, monitoring qilish, oldini olish va bartaraf etishni ta’minlaydigan yaxlit axborot tizimini joriy etishga qaratilgan choratadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda shaharlarda qo‘riqlaadigan obyektlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashda faqatgina chegaralarni himoyalash bilan cheklanib qolish mutlaqo mumkin emas. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yuqori shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida, jamiyatda ekologik va ijtimoiy muammolarga bo‘lgan e’tiborning kundan-kunga kuchayib boayotganligi “xavfsiz shaharlar” tizimini yaratish va rivojlantirish masalasi naqadar dolzarbligini anglatadi.

Kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlariga biometrik texnologiyalarni joriy etishni amalga oshirish.

Kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlardan foydalanishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- obyektning qonuniy manfaatlarini himoyalash, ichki boshqaruv tartibini saqlash, kirib chiqish tartibini belgilash;
- obyekt mulkini, uning ratsional va samarali qo‘llanilishini himoyalash;
- obyekt foydasini o‘stirish;
- obyektning ichki va tashqi barqarorligi;
- tijorat sirlari va intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarni himoyalash.

Kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlari xavfsizlik tizimining bir qismi bo‘lib, quyidagi qo‘shimcha vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- xodimlar va tashrif buyuruvchilarning, mahsulotlar va moddiy boyliklarni transport orqali kiritilishi va chiqarilishini tartib bilan amalga oshirilishini, obyektning bir maromda ishlashini ta'minlash;
- begona shaxslar va transport vositalarining qo'riqlanayotgan hudud (obyekt) va bino (xona)larga nazoratsiz o'tishlarini bartaraf etish;
- obyekt manfaatlariga moddiy va ma'naviy zarar etkazishi mumkin bo'lgan xavfni, potentsial xavfli sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash;
- obyektning ichki va tashqi aloqalarini tashkiliy turg'unligini ishonchli kafolatini yaratish, xavf va salbiy tamoyillarga nisbatan tezkor harakatlanish mexanizmini ishlab chiqish.

Yuqorida bayon etilganidek, kirib chiqishni nazorat qilish va boshqarish tizimi (KChNQvaBT) kirish cheklangan binolar va hududlarga shaxslarning identifikatsion belgilari kombinatsiyasiga ko'ra shaxsini aniqlagan holda, sanksiyalangan (ruxsat etilgan) kirishni va undan chiqish, shuningdek, obyektga kirish cheklangan bino va hududlariga sanksiyalanmagan (ruxsat etilmagan) kirib-chiqishni bartaraf etishni ta'minlash uchun mo'ljallangan.

O'rnatilgan talablariga ko'ra KChNQvaBT tizimi chegaralashni boshqaruvchi qurilmalar va ijrochi qurilmalar tarkibidagi: hisoblagichlar va identifikatorlar tarkibidagi identifikatsiya alomatlarini kiritish qurilmalari; apparatli va dasturli vositalar tarkibidan mavjud bo'lgan boshqarish qurilmalaridan iborat.

Hisoblagichlar va chegaralashni boshqaruvchi qurilma bilan KChNQvaBT, moddiy boyliklar jamlangan xonalar, obyekt rahbarlarining xizmat xonalari jihozlanadi. Xodimlar va tashrif buyuruvchilarning obyekt binolariga KChNQvaBT orqali ruxsatnomalarini bino va xizmat xonalarga nisbatan – bitta belgiga ko'ra; kirish cheklangan hududlarga (qimmatbaho boyliklar omboriga, seyflar bo'lgan xonalarga, qurol saqlash xonalarga) ruxsatnomalar esa identifikatsiya qilishning kamida ikkita belgisiga ko'ra amalga oshirish lozim.

KChNQ va BT tizimi quyidagi asosiy vazifalarning bajarilishini ta'minlab berishi lozim:

- ❖ Chegaralashni boshqarish qurilmalari identifikatsiya belgilarini hisoblashda belgilangan vaqt orasida yoki KChNQ va BT operatorining komandasiga ko'ra ochishni;
- ❖ o'rnatilgan vaqt oralig'ida mazkur ruxsat etilgan hududga kirish ruxsat berilmagan identifikatsiya alomatlarini hisoblashda ChBQni ochish taqiqlanishini;
- ❖ boshqarish qurilmalaridagi identifikatsiya alomatlarini sanksiyalangan holda o'zgartirish kiritish (qo'shish, o'chirib tashlash) va ularning ruxsat berilgan hudud va kirishga ruxsat berish orasidagi vaqt intervali bilan aloqani ta'minlashni;

❖ идентификация alamatlarini o'zgartirish (qo'shish, o'chirish) uchun boshqarish qurilmalarining dasturli vositalariga sanksiyalanmagan kirishdan himoyalashni;

❖ texnik va dasturli vositalarni boshqaruv elementlari, tartibini o'rnatish va sanksiyalanmagan kirishdan himoyalashni;

❖ elektr tokidan oziqlanish manbai o'chirilganida identifikatsiya alamatlari ma'lumotlar bazasi va sozlangan ma'lumotlarni saqlashni; o'rnatilgan tartib va yong'in xavfsizligi qoidalariga muvofiq avariya holatlarida, yong'in, nosozliklar yuzaga kelganida o'tish uchun ChBQni qo'lda, avtomat yoki yarimavtomatik tarzda ochishni;

❖ ruxsat etilgan identifikatsiya alamatlari hisoblanganidan so'ng ma'lum vaqt o'tgach o'tish holati mavjud bo'lmaganida ChBQni avtomat tarzda yopishni;

❖ identifikatsion alamatlar (kodlar)ni tanlashga harakat qilishda tashvish signalini (yoki ChBQni vaqtincha blokirovka qilishni) berishni;

❖ joriy va tashvishli hodisalarni qayd qilish va saqlab qolish.

Obyekt predmetlari saqlanishi zarur bo'lgan bino va obyektlarida, mazkur predmetlar qo'riqlanayotgan xonalardan yoki binolardan maxsus identifikatsiya belgilar bo'yicha sanksiyalanmagan olib chiqib ketilishini nazorat qiluvchi KChNQvaBTni o'rnatish lozim.

Ishchi qurilmalari bo'lgan chegaralashni boshqarish qurilmalari quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- o'tish joylarini qisman yoki batamom to'sib qo'yishni;
- avtomatik va mexanik (avariya holatlarida) ochishni;
- ChBQ ichidagi odamni blokirovka qilishni (shlyuzlar, o'tish kabinalari orqali);
- talab qilinadigan o'tkazuvchanlik qobiliyatini.

Identifikatsiya alamatlarini kiritish qurilmalari hisoblagichlari quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- identifikatorlardagi identifikatsiya alamatlarini hisoblashni;
- identifikatsiya alamatlarini boshqarish qurilmalari ma'lumotlari bazasida yoki xotirasida saqlanayotgan alamatlar bilan taqqoslashni;
- foydalanuvchini identifikatsiya qilishda ChBQni ochishga signalni shakllantirishni;
- boshqarish qurilmalari bilan ma'lumot almashishni.

Identifikatsiya alamatlarini kiritish qurilmalari identifikatsiya alamatlarini tanlash yo'li bilan manipulyatsiya qilishdan himoyalinishi lozim. Identifikatsiya alamatlarini kiritish qurilmalari, identifikatsiya alamatlarini, o'rnatilgan elektr ta'minot elementlarisiz identifikatorlar uchun, butun foydalanish davomida, o'rnatilgan elektr ta'minot elementlariga ega identifikatorlar uchun esa, 3 yildan kam bo'lmagan holda saqlashi kerak.

Kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlar ma'lum bir hududga xodimlar (ishchilar, transport) kirish va chiqishlariga ruxsat berish yoki ularni cheklash, ro'yxatga olishni maqsad qilgan dasturiy va apparat-texnik nazorat vositalari va boshqaruv vositalari to'plamidan iboratdir. Tizimning asosiy vazifasi – ma'lum bir hududga kirish va chiqishni boshqarishdir (kimga ruxsat berish kerak, qaysi vaqtda va qaysi hududga kabi bir qancha savollarni qamrab oladi).

Bundan tashqari tizim quyidagi vazifalarni ham bajaradi:

- Belgilangan hududga kirishga ruxsat berish va uni cheklash;
- Belgilangan hududga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxsni aniqlash;
- Obyektga moddiy vositalarni olib kirilishini va ularni olib ketilishini nazorat qilish;
- Moddiy qiymatbaho buyumlarga qasddan zarar yetkazilishini oldini olish;
- Obyektga tashrish buyuruvchilar oqimini tartibga solish;
- Xodimlarning(ishchi) obyektga kelish va ketish vaqtini hisobga olish;
- Xodimlarning(ishchi) ish haqini hisoblash (buxgalteriya tizimi bilan integratsiyalashishda);
- Xodimlar(ishchi) to'g'risidagi identifikatsiya qilish ma'lumotlarini bazada saqlash;
- Obyekt xavfsizlik tizimi bilan integratsiyalashishi: tizim voqealari arxivlarini birlashtirish, videokuzatuv tizimi orqali yozishni boshlash zarurligi haqida xabar berish uchun videokuzatuv tizimi bilan kamerani KChNQ va BTda qayd etilgan shubhali hodisaning oqibatlarini qayd etish uchun aylantirish;
- yong'in signalizatsiyasi tizimi (ATP) bilan integratsiyalashishi: yong'inni aniqlash detektorlari holati haqida ma'lumot olish, evakuatsiya chiqish eshiklarini avtomatik ravishda ochish va yong'in signalida yong'in sodir bo'lgan xonalar eshiklarini yopish;
- transport vositalarini kirishini va chiqishini nazorat qilish.

Tizimni jihozlashda imkoniyatlardan kelib chiqib shunday o'rnatish kerakki, unda ruxsat etilmagan kirish-chiqishlar bo'lmasligi lozim.

Hozirgi vaqtda magnit kartalar, proximity kartalar, "touch-memory" va shunga o'xshagan elektron kalitlardan keng foydalaniladi. Lekin shu yerda bitta muammo paydo bo'ladi. Bunday elektron kartalar unchalik ishonchli emas (ishlab chiqaruvchilar tomonidan bunday elektron kartalarga kafolat bermaydilar bu bitta asosiy muammo) va o'zgaralar tomonidan o'zlashtirib olish xolatlar mavjud. Aynan bunday muammolarni an'anaviy biometrik erkin foydalanishni nazorat va boshqarish tizimlarining asosiy afzalliklari ko'rib chiqiladi va hal qilinadi. Daktiloskopik identifikatsiyalash usuli yordamida "BioSmart" KChNQ va BT taqdim etildi. Ushbu

tizimning keng funksional imkoniyatlari moslashuvchan dasturiy ta'minot va maxsus mo'ljallangan skanerlovchi qurilmalari o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

BIOMETRIK TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI

Yuz yildan ortiq vaqt ilgari biologik obyektlar hayot aylanish jarayonida o'zgarmaydigan bir qator noyob fiziologik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Odamlarda bunday xususiyatlar, birinchi navbatda, barmoqlarning papiller naqshlari, yuzning geometriyasi, ko'z yoki ko'z naqshini (modelini) o'z ichiga oladi. Bu holat shaxsning haqiqiylikni aniqlash uchun yuqori ehtimollik bilan maxsus biometrik usullarni qo'llash imkonini beradi.

So'nggi yillarda biometrik texnologiyalarga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi, chunki zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish bilan insonning noyob fiziologik ma'lumotlarini tez va aniq aniqlash mumkin bo'ldi. Bunday identifikatsiya qilish identifikatsiya kalitlaridan (magnit kartalar, elektron kalitlar va boshqalar) foydalanishga asoslangan odatdagi kamchiliklarga nisbatan bir qator muhim afzalliklarga ega bo'lgan zamonaviy biometrik texnologiyalar nazorat va erkin foydalanishni boshqarish tizimlarida keng qo'llanila boshlandi.

Biz biometrik texnologiyalarning asosiy afzalliklarini keltiramiz:

- kalitlarni ruxsatsiz ishlatish ehtimoli yo'q qilinadi;
- taqlidga qarshi himoya yuqori darajani ta'minlaydi;
- majburiy kalitlarga ehtiyoj yo'q;
- inson omilining ta'siri (kalitni yo'qotish yoki buzish, unutish, kalitlarni uchinchi shaxslarga o'tkazish va h. k.) chiqarib tashlanadi.

BIOMETRIK TEXNOLOGIYALARNING VAZIFALARI

Kirishni nazorat qilish va boshqarishda:

- tashrif buyuruvchilarni skanerlash orqali shaxsni aniqlash;
- faqat ro'yxatdan o'tgan xodimlar va mehmonlarga kirish;
- eshiklarni, turniketlarni, to'siqlarni boshqarish;

Ruxsatsiz kirish harakatlarida:

- signal shakllantirish;
- voqealar jurnalini saqlash;
- vaqtinchalik kirishni belgilash.

Xodimlarning ish vaqtini hisobga olish:

- xodimlarning kelishi va ketishi vaqtini avtomatlashtirilgan hisobga olish;
- ish vaqti jadvalini saqlash;
- ish joyidagi xodimning mavjudligi yoki yo'qligi, kechikishi va erta ketishi haqida hisobot yaratish;

- xodimlarning ma'lumotlar bazasini yaratish va saqlash (elektron bazada yoki serverda);

- “buxgalteriya hisobi” dasturiga ma'lumotlarni import qilish va boshqalar.

Binolarning xavfsizligini ta'minlashda:

- har qanday mavjud erkin foydalanish nazorat qilish tizimlari va xavfsizlik signalizatsiyasi bilan integratsiyalashuvi;

- signalizatsiya tizimlari ishlaganda uni kuch tuzilmalari yordamida bartaraf etish imkoniyati.

O'zbekiston Respublikasi qo'riqlanayotgan obyekt larining kirish-chiqish

Xavfsizlik infratuzilmasiga ega bo'lgan binolarda ushbu tizimlar jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy qudratini osirib, ishonchli kelajak qurayotgan davlat sifatida xalqaro hamjamiyatda mustahkam o'rin eallashiga zamin yaratadi.

Horijiy tajribani o'rganib, O'zbekiston Respublikasi qo'riqlanadigan obyektlari uchun eng maqbul zamonaviy texnologiyalarni tanlasak hamda ularni joriy etish bo'yicha kerakli tavsiyalarni ishlab chiqsak, ushbu obyektlarning qo'riqlash ishonchliligining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. “Jamoat xavfsizligini ta'minlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalarning o'rni” mavzusida respublika ilmiy-amaliy plenar va onlayn konferensiya materiallari. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2018 yil

3. Yoqubov U.A., Eshquvatov Sh.X.. Obyekt ga kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlar. Darslik. – T., 2018.

4. Yoqubov U.A., Dadaboyev A.N. Obyekt lar xavfsizligini tizimli ta'minlash konsepsiyasi.O'quv qo'llanma. – T., 2018.

Internet manbalari

www.video-control.ru, www.secnews.ru, www.aamsystems.ru, www.sigma-is.ru, ,
www.guardtec.ru, www.hitsec.ru, , www.itv.com, www.smartec-cctv.ru,
www.ktso.ru, www.Lex.uz, www.Ziyonet.Uz, www.securityrussia.com,
www.colosseoas.com, www.alibaba.com, www.rgsec.ru.

МИКРОELEMENTLARNING AHAMIYATI

Muzaffarov O., Mo'ydinova D., Xoshimova M. (talaba)
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
mahzunaxoshimova870@gmail.com

ANNOTASIYA

Ushbu ishda tabiatda uchraydigan mikroelementlarning xususiyati va amalda qo'llanilishi haqida ma'lumotlar keltirilib, ularning foydali tomonlari, o'simlik va tirik sistemalardagi jarayonlarning o'tishida ishtiroki va boshqa tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: hujjyra, modda, almashinuv, organism, reaksiya.

ABSTRACT

In this work, information is provided about the properties and practical use of microelements found in nature, their useful aspects, their participation in the processes in plant and living systems, and other aspects are highlighted.

Key words: cell, substance, exchange, organism, reaction.

АННОТАЦИЯ

В данной работе приводятся сведения о свойствах и практическом использовании микроэлементов, встречающихся в природе, освещаются их полезные аспекты, их участие в процессах в растительных и живых системах и другие аспекты.

Ключевые слова: клетка, вещество, обмен, организм, реакция.

Mikroelementlar - organizm, o'g'it, rudalarda kam miqdorda uchraydigan kimyoviy elementlar. Tuproq va tog' jinslari, suv tarkibidagi ayrim makroelementlar ko'pchilik hayvonlar, o'simlik va odam uchun mikroelement hisoblanadi. Odatda, eng muhim mikroelementlarning asosiy fiziologik va gigeyenik xususiyatlariga ta'sir etadi. Immunitet reaksiyalari qon hosil qilish va to'qimalarning nafas olishida qatnashadi, hayvonlarda yetishmasa ozadi, bo'yi o'smaydi, skeleti rivojlanmaydi. Bo'yi o'sishi organizm rivojlanishiga yordam beradi. Qon hosil qilish immun reaksiyalar va to'qimalarning nafas olishida qatnashadi.

Organizmida mikroelementlar xilma xil biologik faol birikmalar: fermentlar, vitaminlar, gormonlar kiradi. Bu mikroelementlarning ta'siri, asosan, organizmida moddalar almashinuvi jarayonlari faolligining o'zgarishida namoyon bo'ladi. Bazan mikroelementlar organizmlarning o'sishi qon hosil qilishi to'qimalar orqali nafas olish jarayonlari, hujjyralari ichki moddalar almashinuviga ta'sir ko'rsatadi.

Mikroelementlarning o'simlikdagi oksidlanish-qaytarilish, fotosintez azot va uglerod almashinish jarayonlarida faol ishtirok etadi.

MARGANES—dastlab Bertran va I.V.Michurinning tajribalari o'simliklarhatotida marganes katta ahamiyatga ega ekanligini korsatdi.Tuproqda amorf oksidlar, karbanatlar shaklida silikatlar tarkibida bo'ladi. O'simliklar marganesni tuproqdan kation (Mn) shaklida o'zlashtiradi. Uning o'simlikdagi o'rtacha 0.001% yoki 1 mg/kg quruq massa hisobida bo'ladi. Ayniqsa, o'simliklarning barglarida ko'p to'planadi. Masalan, kruglovaning ko'rsatishi bo'yicha, 100gr quruq massa hisobiga marganes g'o'za barglarida-24mg, poyasida-2mg,chanoklarda-4mg,chigitda-2mg va tolasida-1mg bo'lar ekan.

Marganes fotosintez jarayonida ishtirok etib,suvning fotolizi va kislorodning ajralib chiqishi, SO₂ning qaytarilishida muhim rol o'ynaydi.

Marganes nafas olish jarayonida ham ishtirok etib, Krebs siklidagi malatdegidrogenaza va izositratdrgidrogenaza fermentlarini faollashtiradi. Marganes o'simliklarning azot o'zlashtirish jarayonida ham faol ishtirok etadi. Nitratlarni o'zlashtirganda qaytaruvchi, ammoni holdagi azotni o'zlashtirishni esa oksidlovchi sifatida ishtirok etadi. Hidrooksilaminreduksiya fermentining faol markaziga kiradi va nitratlarning qaytarilishida ishtirok etadi . Marganes nuklein kislotalarning sintezi jarayonida ham ishtirok etadi

MIS—o'simliklarning rivojlanishi uchun zarur mikroelementlardan biridir. Uning zarurligi ozuqaviy eritmadagina emas, balki dala sharoitida ham aniq ko'rinadi.

O'simliklarda o'rtacha miqdori 0.0002 yoki 0.2mg/kg atrofida. Bu miqdor o'simlik va tuproq turiga bog'liq. Mis tuproqda sulfidlar, sulfatlar, karbanatlar shaklida, tuproqning organik moddalari bilan bog'liq holda uchraydi. Muhitning ishqoriyligi qancha yuqori bo'lsa, o'simliklarga shuncha kam o'tadi . O'simliklar misni tuproqdan katio (Cu) shaklida o'zlashtiradi. O'simliklarning yosh o'suvchi qisimlarida va urug'larida ko'p bo'ladi. Masalan,g'o'za organlarida: barglarida mis-2.5mg/kg, poyada-1.0mg/kg, chanokda-4.8mg/kg chigitda-4.2mg/kg va tolada-0.2mg/kg bo'ladi. O'simlik barglaridagi umumiy misning 70%i xloroplastlarda va plastoslanin ferment tarkibida uchraydi. Plastoslanin fermenti fotosintez jarayonida elektronlarni tashish jaroyinini bajaradi.

Mis bir qator muhim fermentlar (askarbotoksidaza, polifenoloksidaza, ortofeniloksidaza va triozinazalar) tarkibiga kiradi. Bu mikroelement azot almashinuvida ham ishtirok etadi. Xlorofillning sintezi jarayonida mis ham faol ishtitok etishi aniqlangan. Mis vitaminlarni faollashtiradi, uglevod va oqsillar almashinuvini kuchaytiradi.

Keyingi yillardagi izlanishlar o'simliklarni qurg'oqchilikka, sovuqqa va issiqlikga chidamliligini oshirishda ham misning ahamiyati borligini korsatadi.

KOBALT— tuproqda silikat va boshqa tuzlar tarkibida uchraydi. Xlorli sulfat va azot tuzlarini o'simliklar yaxshi o'zlashtiradi. Bo's tuproqlarda kobalt juda oz, umumiy miqdori 5mg/kg bo'lib, o'zlashtiriladigon qismi 0.6-mg/ kg atrofida.

O'simliklarda o'rtacha 0,00002% yoki 0,02mg/kg quruq massaga teng. Bu element ko'proq dukkakli o'simliklarga zarur bo'lib tugunak bakteriyalarning ko'payishini ta'minlaydi. Vitamin V12 tarkibida kobalt ko'p uchraydi. Bu vitaminni faqat bakteriotlar sintez qiladi. U molekulyar azotning fiksasiyasida ishtirok etadi. Kobalt azot o'zlashtirishga xlorofillning miqdorini oshirishga ta'sir etadi. Agar tuproqda kobaltning miqdori 2,5—4,5 mg/kg bo'lsa yetarli hisoblanadi. O'g'it sifatida ishlatish uchun kobalt sulfat tuzi tavsiya etiladi.

RUH — tuproqda fosfatlar, karbonatlar, sulfidlar, oksidlar va silikatlar tarkibida bo'ladi. Ruh dukkakli va gallasimonlarning yer osti qismlarida 15—60 mg/kg quruq massa hisobida bo'ladi. O'simliklarning yosh organlarida ko'proq to'planadi. Ruh o'simliklarning modda almashinuv jarayonlarida faol ishtirok etadi. O'simliklarni ruh bilan oziqlantirish auksinlarning to'qimalarda ko'payishiga va o'sishning faollashishiga olib keladi. Biroq salbiy tomonlari xam mavjud [4].

BOR—juda ko'p o'simliklarning o'sish va rivojlanishi uchun zarur element hisoblanadi. O'zbekistondagi bo'z tuproqlarda umumiy miqdori 31—35 mg/kg atrofida bo'lib, o'zlashtiriladigan qismi 0,3—1,2 mg/kg ga teng. O'simliklarda o'rtacha 0,0001 yoki 0,1mg/kg quruq massa hisobida bor bo'ladi. Bor ayniqsa o'simlik gullarida, hujayra po'stida to'planadi. Ko'p fiziologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Bor gul changlarining unishini va chang naylarining o'sishini tezlashtiradi. Gullar va mevalarning sonini ko'paytiradi. Uglevodlar, oqsillar va nuklein kislotalarning almashinuviga ta'sir etadi. Bor yetmaganda reproduktiv organlarning shakllanishi changlanish va meva tugunlarining hosil bo'lishini izdan chiqaradi. O'sish konusi birinchi navbatda nobut bo'ladi. energetikada ishlatilishi xaqida manbalar xam mavjud [5]. Eritmalarning foydali xossalari shakllanirish maqsadida ishlatilishi mumkin [6]. O'g'it sifatida bor kislotasini ishlatish mumkin. Uning tarkibida 17% bor bo'ladi. Borli chiqindilarni ham ishlatish yaxshi natija beradi.

Xulosa shuki, mikroelementlarning qishloq xo'jaligida ishlatilishi oziq-ovqat maxsulotlarini ta'minotida katta amaliy yordam beradi. Xosildorlik ortishiga ijobiy turtki beribgina qolmay, yerdan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishga asosni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibrohimjon Asqarov, Kamoliddin G`opirov, Nozimjon To`xtaboyev. Kimyo. 9-sinf
2. <https://uzkhanacademy.org>
3. Mo`ydinova D., Hasanov G'. Organizmda lipidlar almashinuvi /International Conference on innovative development of education 2023/21. 2023. January. P.426-429.
4. <http://www.eco.nw.ru/lib/data/06/3/070306.htm>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/bor-svoystva-i-primeneniye-v-yadernoy-energetike>
6. <https://naukarus.com/sostav-i-struktura-splavov-kobalt-molibden-bor-poluchennyh-metodom-himiko-kataliticheskogo-vosstanovleniya-dimetilamin-bo>

**О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI QO‘RIQLANAYOTGAN
OBYEKTЛАRNING MUHANDISLIK-TEХNIK NI MOYALANGANLIKNI
TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TEХNIK YECHIMLARI**

**СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ОХРАНЯЕМЫХ ОБЪЕКТОВ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**MODERN TECHNICAL SOLUTIONS FOR THE ORGANIZATION OF
ENGINEERING AND TECHNICAL PROTECTION OF PROTECTED
OBJECTS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Jalolov Alisherjon Abduhomid o‘g‘li,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

Universiteti Magistratura tinglovchisi

Jalolovalisher3363336@gmail.com

Sattorov Rasul Ural o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

Universiteti magistratura tinglovchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi qo‘riqlanayotgan obyektlarning kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlardan foydalanish, biometrik texnologiyalarni xususiyatlari bo‘yicha takliflar berildi.

Аннотация

В данной статье внесены предложения по использованию систем, контролирующих и управляющих процессом въезда-выезда охраняемых объектов Республики Узбекистан, и особенности биометрических технологий.

Annotation

In this article, proposals are made on the use of systems that control and manage the process of entry and exit of protected objects of the Republic of Uzbekistan, and features of biometric technologies.

Tayanch so‘z va iboralar: biometrik texnologiyalar, kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlar, turniket, foydalanuvchining identifikatori, magnit kartalar, viganda (Wiegand), shtrix-kodli kartalar, brelok-kalitlar «tachmemori», kartalar hisoblagichi.

Ключевые слова и фразы: биометрические технологии, системы контроля и управления въездом-выездом, турникет, идентификатор

пользователя, магнитные карты, Wiegand, карты штрих-кода, ключи-ключи «тач-память», счетчик карт.

Key words and phrases: biometric technologies, entry-exit control and management systems, turnstile, user ID, magnetic cards, Wiegand, barcode cards, touch-memory keys, card counter.

Har bir rivojlanayotgan mamlakat birinchi galda o'zining xavfsizligi, chegaralari dahlsizligi, fuqarolarning tinch-totuv yashashi va unda faoliyat ko'rsatayotgan barcha turdagi obyektlarning texnik vositalar majmui bilan to'liq jihozlanganligiga katta e'tibor qaratishi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi obyektlarning kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlar obyekt xavfsizlik tizimining asosini tashkil qiladi, uni xavfsizligini ta'minlash esa muhimdir. Mamlakatimizda mavjud bo'lgan obyektlar va ular tomonidan qo'riqlanadigan o'ta muhim va toifalangan obyektlar; aeroportlar, oltin konlari, neft va gaz maxsulotlarini ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar, hukumat binolari va boshqa turdagi obyektlar xavfsizligini ta'minlash biz uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlar (KChNQ va BT) - bu dasturiy-texnik ta'minot, axborotli va foydalanishga qulay bo'lgan boshqaruv va nazorat vositalarining yig'indisidir. Kirish-chiqishni nazorat qilish tizimi odam tomonidan nazorat qilinganda unda sodir bo'ladigan kamchiliklarni bartaraf etadi va obyekt xavfsizlik xizmati ishini sezilarli darajada oshiradi.

Hozirgi vaqtda kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlarda zamonaviy biometrik texnologiyalar ko'proq foydalanilib kelinmoqda. Lekin turli xil identifikatsiya kartalari, kalitlar yoki noyob ma'lumotlarga asoslangan identifikatsiya qilishning an'anaviy usullari zarur bo'lgan darajada ishonchli emas. Biometrik identifikatsiyalash insonga berilgan identifikatsiya xususiyatlariga ko'ra emas, balki insonning fiziologik xususiyatlariga yoki o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra amalga oshiriladi – xotirada saqlanishi kerak bo'lgan noyob shaxsiy ma'lumotlarni yo'qotish mumkin emas va taqlid qilish juda qiyin. Biometrik texnologiyalarni o'ziga xos bir nechta xususiyatlari mavjud:


1. Ehtimollik darajasi 0.1 – 0.0001 %;
2. Identifikatsiya (aniqlash) vaqti;
3. No'to'g'ri o'tkazish koeffitsienti;
4. No'to'g'ri rad etish koeffitsienti.

Маълумот билан ишлашда ахборот технологиялари воситаларидан компьютер тармоқдан фойдаланиш, ўқувчиларга унинг ишлаши учун зарурий талаблари ва бир вақтда фойдаланувчилар учун белгиланган зарурий билим даражаси, ушбу техник воситалар билан ишлашни персонал аъзоларини доимий ўргатиш керак.

Бошқа омил сифатида ўқитиш жараенида ахборот технологияларнинг воситаларнинг қўлланилиши, улар имкониятларидан самарали фойдаланиш ўқитиладиган фанларнинг назарий билимлари амалий тушунчалари билан боғланиш ташкил қилиб, янги комплекс тушунчанинг шаклланиши асос бўлиб қолади. Ўрганишга ўқув адабиётларнинг янги шакллари кенг фойдаланишга кириш ижобий туртки беради. Адабиётларни ўқувчига етказиб бериш, уларнинг кенг кўламда фойдаланиш жуда қулайдир.

Таълим жараени самарадорлигини ташкил этиш бу жараеннинг ишлаб чиқариш билан боғлиқ ҳолда ўқувчиларнинг касбга йўналтириш ишлари олиб боришда, уларда ижтимоий фаолликни шакллантириш, янгича фикрлаш учун шароит яратиш сингари ижобий натижага эришилади.

Ишлаб чиқариш соҳаларида ўқувчиларнинг иштирокини ташкил этиш қуйидаги натижаларга эришиш имкини беради:

- фойдали кўникмаларни шакллантиради,
- меҳнат қилиш ва тажриба оширишга асос яратилади.

Ҳорижий тилларни ўрганиш жараенида ўқувчилар бошқа маданият ташувчиларнинг дунёқараши ва яшаш тарзи тўғрисида маълумотга эга бўлибгина қолмай, балки ўзи учун янги маълумот манбаини топади, янгича фикрлашга ундовчи туртки пайдо бўлади. Натижада ўқувчида умуман янги билим ва қарор қабул қилиш имконияти вужудга келади. Бошқа жаҳон тиллардаги манбаларнинг фанларга мос равишда амалиётга киритиши еш авлодда янги билимлар шаклланиши, улар асосида комплекс тушунчалар пайдо бўлиши учун шароит яратиб беради. Натижада олинган билимлар узоқ муддат сақланиб қолишига олиб келади.

Тушунчанинг изоҳланиши

№	Тушунча	Фанлар			
		Адабиёт	Физика	Киме	Математика
1	Микдор	Умумий тушунча	Модда ўлчови	Модда массаси	Соннинг қиймати
2	Манба	Китоб	Заррача	Модда тури	Хисобланиш бошланиши
3	Тезлик	Сўзлар сони	Харакат микдори	Жараен суръати	Амалий тушунча
4	Манба тури	Шакл	Туртки шакли	Жисм шакли	Жараен ҳолати
5	Таъсирлашиш	Муносабат шакли	Жисмлар жойлашуви	Реакция натижаси	Натижанинг шакли

Ахборот технологияларнинг техник воситаларидан бири компьютер тармоғининг афзалликлари ва муаммоларини кўриб чиқайлик. Биринчисига қуйидагиларни киритсак бўлади: маълумотни тезкор топиш ва етказиб бериш, манба шакли ва ёзилган тили барчага бир хил кўринади, хажм қиймати ўта катта бўлмаслиги. Кейинги томонларига манбанинг тушуниш даражасини аниқлаш иложи йўқлиги, айрим ҳолатда сифати меъёрда бўлмаслиги, ўқувчининг юкмасини назорати олиш иложи йўқлигини киритса бўлади.

Таълим жараенида аниқ фанлардан олинган билимлар асосида ўқувчида умумий тушунча ва дунёқараш кенгайиши содир бўлади. Табиий ҳодисаларнинг сабаблари ва механизмини тушуниши осонлашади, ўзи ва табиат ўртасидаги мувозанат ҳамда таъсирлар ҳақида тушунчаси шаклланишга имконият яратилади.

Табиатдаги ҳодиса ва жараенларни тушуниш ва механизмларни ўрганишда география, киме, биология, ботаника, математика, физика фанларидан олинган билимлар асосида тўғри жавобни топиш мумкин. Шунинг учун ўқитиладиган фанларнинг барчаси бўйича кенгроқ билимга эга бўлиш орқали ўқувчининг тайёргарлик даражасини ортишига эришилади.

Хулоса шуки, ўқувчининг руҳий ҳолати ва олинган назарий билимлар амалий қўникма билан биргаликда умумий дунёқарашни шакллантиради. Бу эса биз юқори билимли ва малакали авлод тарбиялашга эришамиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Кирйигитов Б., Тўхтасинов Ш. Новые формы источников: использование и технические возможности/“Ilm-fan va ta’limda innovatsion yondashuvlar, muammolar, takliflar va yecimlar” mavzusidagi 13-sonli Respublika ko’p tarmoqli ilmiy-onlayn konferensiya’asi. Farg’ona, 2021. 30 iyun. 2-қисм. 117-119-бетлар.

2. Кирйигитов Б., Абдувоҳидов А. Тушунчаларнинг комплекс тарзда фойдаданиш аҳамияти/“Ilm-fan va ta’limda innovatsion yondashuvlar, muammolar, taklif va yecimlar” mavzusidagi 14-sonli Respublika ilmiy-onlayn konferensiya’si. Materiallar to’plami. Farg’ona, 2021, 30 iyun. 1-қисм. 41-44-бет.

3. Кирйигитов Б., Абдуганиев М. Интернет-протокол (IP) является основным протоколом на сетевом уровне модели OSI /Образовательный процесс.-Выпуск №6. – 2018. -32-36 стр.

4. Кирйигитов Б., Кодиров Р. Использование альтернативных видов источников электроэнергии в сельском хозяйстве //Scientific progress. - 2021.- V.2. I.7. - 150-154-бет.

O'QUVCHILARDA KASBGA BO'LGAN TUYG'UNI OSHIRISH

*Qoraqolpog'iston Respublikasi To'rtkol tuman 30-umumiy o'rta ta'lim maktab
Xalmuratova Gulzor*

Annotatsiya: : O'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining o'рни va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagikamchiliklar ularni bartaraf etish yo'llari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: To'g'ri kasb tanlash, ijtimoiylashtirish, o'z-o'zini baholash, texnologik ta'lim, uzluksiz tizim, hamkorlik, fanlararo aloqadorlik.

Joriy yil Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Farg'onaga tashrifi chog'ida Xalq ta'limi vazirligiga alohida ko'rsatmalar berdi. Prezident yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish masalalariga alohida to'xtalib o'tib, yangi o'quv yilidan 7 sinfdan boshlab o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish lozimligini ta'kidlab o'tdi. Prezidentning Xalq ta'limi vaziri Sh.Shermatovga bergan ko'rsatmasiga ko'ra 2020-2021 o'quv yilidan 7 sinfdan boshlab o'quvchilar kasb-hunarga yo'naltirilib, ular aynan qanday kasb egasi bo'lishi aniqlanadi. 8, 9, 10 sinfga qadar ular o'zlari tanlangan kasb-hunar bo'yicha o'qitilib boriladi. 10 sinfdan ularga ishlash huquqini beruvchi guvohnomalar beriladi. 11 sinfdan esa o'quvchilar bir vaqtning o'zida korxonalar va tashkilotlarda rasmiy tarzda ishlab oylik maosh olishlari ham mumkin bo'ladi. 11 sinf bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishiga hokimlar va hududiy sektor rahbarlari javobgar hisoblanadi. [5,1-b]. Ushbu kursatmadan kurinib turibdiki yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasbga yunaltirish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu borada maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish, iqtidoridan kelib chiqib to'g'ri kasb tanlashi katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik xalqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustivor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi.[1,14-b] Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi

O'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o'tkaziladigan mashg'ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to'garaklar alohida o'rin egallaydi. Bunday to'garaklar aksariyat hollarda mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bular jumlasiga texnik-ijodkorlik, yosh rassomlar, yosh texnologlar, yosh fiziklar kabi

to'garaklarni kiritish mumkin. O'qituvchi bunday to'garaklarda o'quvchilarning loyihachilik, texnik-ijodkorlik, ixtirochilik kabi qobiliyatlarini rivojlantirish ustida tizimli ish olib borish imkoniyatiga ega. Texnologiya o'qituvchisi o'z ish faoliyatida pedagogik-psixologik tashxisga alohida o'rin ajratishi lozim. Pedagogik-psixologik tashxis jarayonida o'qituvchi maktab rahbariyati va psixologi, o'quv-ishlab chiqarish muassasasi hamda kasb-hunar kollejlari mutasaddilari bilan hamkorlikda har bir o'quvchining tanlagan kasbi bilan shaxsiy sifatleri orasidagi mutanosiblikni aniqlashi kerak. Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining o'quvchilarni kasbga yo'llashga oid faoliyatini sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, maktab rahbariyati va psixologi, otaonalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar kollejlari ma'muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak. O'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'llashda mehnat xonasi, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega. Mehnat fani o'qituvchisi ularni zamonaviy talablar asosida jihozlashga alohida e'tibor qaratishi lozim, chunki o'quvchilarda muayyan mehnat va kasb turi haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlar ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlar dastlab shu yerda hosil bo'ladi. Ma'lumki, mehnat va kasb-hunarga bo'lgan muhabbat, e'tiqod, barcha o'quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun ham texnologik ta'lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Mehnat o'qituvchisining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o'quv fanlari o'qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Buning uchun: – turli o'quv fanlari, fan to'garaklari va sinfdan hamda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish; – texnologik bilimlar, umummehnat va kasbiy ko'nikmalar yordamida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirishga erishish; – o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishlarini ta'minlash; – jamiyat hayoti uchun ahamiyatli bo'lgan mehnat va kasb-hunarning turli sohalariga o'quvchilarning qiziqishlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida shakllantirishga erishish; – o'quvchilarni munosib kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida, maktab o'qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunar kollejlari hamda tashxis markazlari hamkorligini yo'lga qo'yish. Bunday hamkorlik natijasida o'quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan kasblar targ'ibotini amalga oshirish imkoni paydo bo'ladi. [3,57-b].

Tabiiy extiyojlarda kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning xayoti va uning avlodi xayotini saklash uchun zarur bolgan shart-sharoitlarga bo'ysunganlik ifodalanadi. Madaniy extiyojlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining maxsuliga bogliq ekanligi ifodalanadi; uning ildizlari butunlay kishilik tarixining sarxadlariga borib taqaladi. Ma'naviy jixatdan o'rinni bolgan extiyoj odam yashayotgan jamiyatning talablariga javob beradigan, ana shu jamiyatda qabul qilingan didlar,

baxolar va dunyoqarashga mos keladigan extiyojlardir. Extiyojlar o'z predmetining xarakteriga ko'ra moddiy va ma'naviy mumkin. Moddiy extiyojlarda kishining moddiy madaniyat predmetlariga qaramligi (ovqatlanishiga, kiyinishiga, uy-joyga, maishiy turmush ashyolariga va boshqa narsalarga extiyoj sezish) ma'naviy extiyojlarda esa ijtimoiy ong maxsuliga tobeligi ifodalanadi. Ma'naviy extiyojlar ma'naviy madaniyatni yaratish va o'zgartirishda o'z aksini topadi. O'quvchi o'z fikr-muloxazalari va tuyg'ularini boshqalar bilan baxam ko'rishga gazetalar, kitoblar va jumallar o'qishga kinofilmlar va spektakllar ko'rishga, muzika tinglashga va shu kabilarga extiyoj sezadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazufalardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman. Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. 156-b
2. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
3. Maxmudova .D. "O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogi k faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash". Xalq ta'limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.
4. <https://uzbekistan.ureport.in/story/364/> 5. <https://t.me/dokument>

HARAKATLI O'YIN VOSITALARI ORQALI BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Yaxshiboyev Bektemir Mamirovich

Samarqand viloyat Ishtixon tuman 72-maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakat sifatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan vosita sifatida to'g'ri foydalanish muhokama qilinadi. Zamonaviy O'zbekistonning hozirgi bosqichda boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya sohasidagi muammolari ochib berilgan. Dars shaklida boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat sifatlarini rivojlantirishni tabaqalashtirilgan dasturlash bilan bog'liq yangi yondashuvlarni ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqiladi, bu maktabda jismoniy tarbiya muammolarini hal qilishni takomillashtirishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: o'quvchilar, harakat sifatleri, tajriba, metodika, boshlang'ich sinf, rivojlanish, jismoniy xususiyatlar.

KIRISH

Jismoniy tarbiya har tomonlama jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida mustahkam salomatlik, mustahkam iroda, yuksak samaradorlik va faollikni shakllantirish shaxsning intellektual rivojlanishi va jismoniy kamol topishiga asos bo'ladi.

Jismoniy tarbiya ta'lim jarayoni bo'lib, ta'lim tizimining muhim elementidir. Ta'lim tizimida jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchi shaxsini yuqori aqliy, jismoniy, ijtimoiy faollikka ega bo'lgan har tomonlama uyg'un va har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir [1, 2, 3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish va salomatligini mustahkamlashga qaratilgan jismoniy tarbiya darsini optimallashtirish jarayonini o'rganish doimo dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ilmiy-metodik adabiyotlarda harakat qobiliyatini rivojlantirish va ularning darajasini nazorat qilish muammosi jismoniy tarbiya tizimidagi markaziy muammolardan biri ekanligi ta'kidlangan (I. Pashkov, I. Korotkov, V. Yakovlev, S. Mudrik, V. Ratnikov, I. Vasilkov, I. Kozetov va boshqalar)

Ilmiy-metodik adabiyotlar va tadqiqot ishlarining (Y.M.Abdullaev, D.I.Turdimurodov) tahlili o'yinlar soni, takrorlashlar soni, dam olish intervallari va ularning o'zaro ta'sirining rivojlanish dinamikasiga ta'siri masalasini aniqlashga imkon berdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat qobiliyatlari qo'shimcha ilmiy asoslashni talab qiladi. Ushbu muammoni hal qilish nafaqat o'quvchilarning jismoniy tarbiya jarayonini yaxshilash, balki ularning yanada samarali harakatini ta'minlash

imkonini beradi. Bularning barchasi rejalashtirilgan mavzuni ishlab chiqishning dolzarbligi va maqsadga muvofiqligiga olib keladi [6, 7, 8, 9].

МУХОКАМА

Tadqiqotning maqsadi - umumta'lim maktabining 2-4-sinflari o'quvchilarining harakat sifatlarini harakatli o'yinlar yordamida rivojlantirish jarayonlarini o'rganish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat sifatlarini rivojlantirish jarayonini optimallashtirish shartlarini asoslash.

Jismoniy tarbiyani optimallashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish va ularning salomatligini mustahkamlash uchun ularning harakat sifatlarini oshirishning samarali vositalari va usullaridan oqilona foydalanishdir.

Butun eksperiment uchun umumiy rivojlanish mashqlarining o'nta alohida to'plami rejalashtirilgan bo'lib, ular o'yin shaklida amalga oshirildi. Bu darsga motivatsiyani rag'batlantirishga va mashqlarni bajarishda o'quvchilarning e'tiborini jalb qilishga yordam berdi.

Asosiy qismda quyigagi vazifalar hal qilindi. Eksperiment davomida harakatli o'yinlardan foydalanishda kichik yoshdagi o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish darajasini oshirish. Harakat faoliyatining tabiatiga ko'ra harakatli va xalq o'yinlarini tanlashda asosiy harakat turlariga (yurish, yugurish, otish va sakrash o'yinlari) ustunlik berildi, ular jismoniy rivojlanish uchun jismoniy tarbiya tizimiga kiritilgan (kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik), aqliy va axloqiy sifatlardir.

Darsning yakuniy qismida ko'p e'tibor talab qilmaydigan, hayajonga olib kelmaydigan xotirjam o'yinlar o'tkaziladi.

NATIJARLAR

Eksperimental guruhdagi bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligining oqilona tashkil etilgan jarayoni bolalarda harakat sifatlarini ko'p qirrali va bir vaqtning o'zida mutanosib ravishda rivojlantirishga qaratilgan, bu ishlab chiqilgan metodologiya joriy etilgandan so'ng olingan raqamli ma'lumotlardan dalolat beradi. Shunday qilib, natijalarning o'sishi: 1. 30 m (s) yugurish - natijalar yaxshilandi: Nazorat guruhi - 7 yoshdagilarda - 9,75% ga; 8 yoshdagilarda - 3,27% ga; 9 yoshdagilarda - 5,03% ga.

Eksperimental guruh - 7 yoshdagilarda - 17,27% ga; 8 yoshdagilarda - 11,47%; 9 yoshdagilarda - 14,57% ga. 2. Mokisimon yugurish 4x9 (s) - sezilarli miqdoriy o'sish kuzatildi: Nazorat guruhi - 7 yoshdagilarda - 1,41% ga; 8 yoshdagilarda - 1,85%; 9 yoshdagilarda - 1,88% ga. Eksperimental guruh - 7 yoshdagilarda - 2,15% ga; 8 yoshdagilarda - 3,81% ga; 9 yoshdagilarda - 2,76% ga. 3. Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm): Nazorat guruhi - 7 yoshdagilarda - 3,75% ga; 8 yoshdagilarda - 2,83%; 9 yoshdagilarda - 6,00%. Eksperimental guruh - 7 yoshdagilarda - 8,51% ga; 8 yoshdagilarda - 9,36%; 9 yoshdagilarda - 11,39% ga. 4. Tik turgan joydan oldinga

egilish (sm): Nazorat guruhi - 7 yoshdagilarda - 19,71% ga; 8 yoshdagilarda - 23,18% ga; 9 yoshdagilarda - 31,01% ga. Eksperimental guruh - 7 yoshdagilarda 37,77%; 8 yoshdagilarda - 46,53%; 9 yoshdagilarda 46,49% ga. 5. Yotgan holda qo'llarni bukish va yozish (marta): Nazorat guruhi - 7 yoshdagilarda - 6,25% ga; 8 yoshdagilarda - 5,88% ga; 9 yoshdagilarda - 5,55% ga. Eksperimental guruh - 7 yoshdagilarda - 16,66% ga; 8 yoshdagilarda - 19,87% ga; 9 yoshdagilarda - 22,72% ga

Shuni ta'kidlash kerakki, nazorat va eksperimental guruhlarda jismoniy sifatlarni samarali rivojlantirish uchun jismoniy tarbiya darslarida sensitiv davrlarni hisobga olish va kompleks yondashuv jarayonlar hal qiluvchi omil bo'ldi.

Eksperiment natijalarining tahlili ishlab chiqilgan metodikaning jismoniy tarbiya darslarida samarali qo'llanilishidan deyarli barcha ko'rsatkichlarda 7-9 yoshli bolalarning jismoniy tayyorgarlig

REFERENCES

1. Абдуллаев, Я. М. (2012). Развитие физического воспитания подрастающего поколения в непрерывном образовании. Молодой ученый, (11), 381-383.
2. Абдуллаев, Я. М. Создание педагогических условий в формировании волевых качеств у учеников начальных классов / Я. М. Абдуллаев, Д. Ю. Турдимуродов // Colloquium-journal. – 2020. – № 24-2(76). – С. 14-16.
3. Abdullaev, Y. (2021). Forms and methods of developing the use of folk movement games in high school students. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2021(2), 73-79.
4. Абдуллаев, Я. М. (2021, October). Особенности развития физических качеств у учеников старшего школьного возраста средствами подвижных игр. In " Online-conferences" platform (pp. 523-525).
5. Абдуллаев Яшнаржон Махкамжонович, & Турдимуродов Дилмурод Йўлдошевич (2020). Ўсмир ёшдаги ўқувчиларда иродавий сифатларни жисмоний тарбия воситалари орқали ривожлантириш. (Современное образование (Узбекистан). (9 (94)), 56-62.
6. Abdullaev Yashnarzhon Makhkamovich. (2021). Physical education of senior schools by means of folk moving games. European Scholar Journal, 2(11), 70-72.

JISMONIY TARBIYADA SOG'LAMLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DOLZABLIGI

Po'latova Iroda Azamat

*Samarqand viloyat Pastdargam tumani
Guliston mahalla 113-maktab o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sog'lomlashtirish texnologiyalarining mazmun mohiyati, maqsad, vazifalari hamda jismoniy tarbiyada sog'lomlashtirish texnologiyalarining dolzarbligi, ahamiyati uning bugungi kunda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy sog'lomlashtirish funksiyalari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: : profilaktika, individualizatsiya, optimallashtirish, rekreatsion, sport, amaliy

Dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng barcha sohalarda har tamonlama yuksalish yuz berayotganini ko'rishimiz mumkin. Jismoniy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar umuminsoniy qadriyatlar tizimida yangilanish, insonning barcha shaxsiy extiyojlari, talablari va ma'nfaatlari birinchi o'ringa ko'tarilayotganini, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodlarning ma'naviyaxloqiy va jismoniy imkoniyatlari yanada oshayotgani bugungi kunda sir emas.

Jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jismonan sog'lom, ma'nan boy yosh avlodni tarbiyalash, aholini jismoniy tarbiya va sport bilan keng jalb etishni keng jalb etishni ta'minlashga yo'naltirishda yurtboshimiz tomonidan bir qancha qarorlar va farmonlar ishlab chiqildi.

2018 yil 28 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasida "...jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifadir. Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag'batlantirish va qo'llab quvvatlashga bundan buyon ham kata ahamiyat beramiz. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun nazariy bilimlarni chuqur o'rganishimiz, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va takomillashtirishda yangi bilimlarni egallashimiz, zamon talablari darajasida ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, kelajak avlod vakillarini vatanparvar, o'z kasbining yetuk bilimdon egasi qilib tarbiyalamog'imiz darkordir. Bu yo'lda ta'lim va tarbiya berish barobarida o'quv ishlarini rejalashtirishga hamda ularni samarali olib borishga yangicha va ijodiy qarashimiz, ishga tashabbuskorlik bilan yondoshmog'imiz kerak.

Maqsad. Mavzuga ko'ra, jismoniy tarbiya va sportda sog'lomlashtirish texnologiyalarining dolzarbligi va ahamiyati borasida sog'lomlashtirish

texnologiyalari birinchi navbatda jismoniy madaniyat orqali inson salomatligini saqlash va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgan. Sog'lomlashtirish samaradorligi har qanday jismoniy mashqlar shakllarining majburiy komponentidir. Shu munosabat bilan jismoniy madaniyatning barcha tarkibiy qismlari (sport, asosiy, kasbiy-amaliy, sog'lomlashtirish va jismoniy madaniyat) sog'lomlashtirish funksiyalarini bajaradi. Sog'lomlashtirish texnologiyasi - tibbiy-pedagogik va ijtimoiy toifadagi fan bo'lib, ham jismonan, ham ruxan sog'lom bo'lgan millat namoyondasini tarbiyalash va takomillashtirish borasidagi zarur omillarni va uslublarni o'rganib, ularni turmushga tadbiiq etish kabi vazifalarni o'z zimmasiga oladi.

Sog'lomlashtirishning asl maqsadi mauiyyan shaxsning salomatligini nazorat qilish va ta'minlash orqali oilaning, jamiyatning, millatning va davlatning mustaxkam bo'lishiga asos yaratishdir. Salomatlik insonning eng katta boyligidir. Shubhasiz, salomatlik insonning biologik va ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishning asosiy shartidir. Bu insonning o'zini o'zi anglashining asosidir.

Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyati - yoshi, jinsi, mehnat va ta'lim faoliyati va salomatligini hisobga olgan holda, odamlarning jismoniy yukini optimallashtirish va shaxsiylashtirishning maqbul mexanizmi. Sog'lomlashtirish texnologiyalarining bir turi sifatida ularning maqsadi va vazifalari mavjud.

Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llashdan maqsad aholini yaxshilashdir. Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llash maqsadlari esa:

- Tananing funksional qobiliyatini oshirish;
- Kasalliklar profilaktikasi;
- Vosita rejimini optimallashtirish;
- Faol dam olish tufayli charchoqni kamaytirish;
- JSST tavsiyalari asosida sog'lomlashtirish sinflarida optimal o'quv yuklarini individualizatsiya qilish;
- Yomon axloqlarga qarshi kurashda mashqdan foydalanish;
- Turli yoshdagi, jinsiy va sog'liqni saqlash ahvoli, shu jumladan, nogiron kishilarning faol jismoniy tarbiya va sog'lik sinflariga jalb qilinishi;
- Sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida sog'liqni saqlash texnologiyalarini joriy etish;
- Professional ahamiyatga ega bo'lgan ish faoliyatini rivojlantirish.

Sog'lomlashtirish texnologiyalarining tarkibiy qismlariga muvofiq, inson faoliyati natijasida va mavzu qiymatlari majmui sifatida insonning faoliyat turi sifatida qaralishi mumkin.

Yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish ularni salomatligini asrab avaylash, mustahkamlash maqsadida ommaviy sport turlariga jalb etish va aholi

salomatligini mustahkamlash borasida ijtimoiy muhitga ommaviy sportni jalb etish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Sog'lom turmush tarzi va tibbiy madaniyat va sport uyg'unligi borasida yosh avlodga tushnchalar berib, ongiga singdirish bugungi kunning dolzarb fazifalaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бобомуродов Норпулат Широнович Структуры физической подготовленности курашистов // Вестник науки и образования. 2020. №4-2 (82). (обращ).

2. Bobomurodov, Norpo'lat Shirinovich. "Kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi tuzilmalari". Fan va ta'lim axborotnomasi 4-2 (82) (2020).).ения: 24.12.2021

3. Mirjamolov M.X., Odilov R.F., Zokirov D.R.SALOMATLIGI NOGIRONAT IMKONIYATLARI BO'LGAN O'QUVCHILARNING MAXSUS Jismoniy tarbiyasini takomillashtirish // Jismoniy tarbiya va sportning dolzarb muammolari. - 2020. - S. 20- 23.

4. Н. Ю. Валиева, Р. Ф. Одилов МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЭФФЕКТА ТОНУСНЫХ РЕФЛЕКСОВ ПРИ ДЕТСКОМ ЦЕРЕБРАЛЬНОМ ПАРАЛИЧЕ С ПОМОЩЬЮ ФИТБОЛЬНОЙ ГИМНАСТИКИ // Academic research in educational sciences. 2021. №11. (2021): 966-972.

5. ЛТ Давлатова Болалар церебрал фалажида жисмоний тайёргарликни машфулот жараёнида ва илмий назарий соҳада ривожлантириш Academic research in educational sciences, ООО «Academic Research»

6. Н. Ю. Валиева. "РЕЙТИНГОВЫЙ УРОВЕНЬ УПРАЖНЕНИЙ СПЕЦИАЛЬНО ДВИГАТЕЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ В УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНОМ ПРОЦЕССЕ ЮНЫХ СПОРТСМЕНОВ" Academic research in educational sciences, no. 3, 2020, pp. 1266-1271.).

7. Л. Б.Собирова ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ В ПРОФИЛАКТИКЕ НАРУШЕНИЙ РОСТА У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ // Academic research in educational sciences. 2021. №5. URL:

IXTISOSLASHGAN SAN'AT MAKTABLARIDA O'QUVCHILARGA NATYURMORTNI RANGTASVIRDA ISHLASHGA O'RGATISH METODIKASI

NURMATOVA NOILA MUHIDDINOVNA

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi 223- IDUM

Annotatsiya: Mazkur maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilariga tasviriy san'atning natyurmort janrida amaliy vazifalarni bajarish mashg'ulotlarini tashkil etish, natyurmort janrida ijod qilgan rassomlar, natyurmort janrida akvarel bo'yoqlar bilan ishlash texnologiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, akvarel, metodika, natyurmort, rang, shakl, kolorit.

Mustaqil Respublikamizning buyuk kelajagini ta'minlovchi barkamol shaxslarni yetishtirib chiqishda o'rta umumiy ta'lim maktablarida olib boriladigan barcha fanlar qatorida tasviriy san'at fani ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarga 1-7 sinflarda olib boriladi. Tasviriy san'at o'quv predmeti vositasida o'quvchilar quyidagilarga ega bo'ladilar:

- ✓ tevarak-atrofdagi narsa va voqealarga nisbatan estetik munosabat tarkib toptadi va go'zallikni his qila bilishga, tushunishga hamda ularni hayotga tatbiq etishga o'rganadilar;
- ✓ qalam va mo'yqalamda rasm chizish, loy, plastilinda, haykal ishlash malakalari shakllanadi;
- ✓ narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, xotiradan, tasovvurdan rasm chizish sohasida ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi;
- ✓ ularda tasavvur va tafakkur o'sadi;
- ✓ borliqni idrok etish, rang sezish, kompozitsiya tuzish malakalari rivojlanadi;
- ✓ bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatlar o'sadi;
- ✓ o'quvchilarning badiiy fikrlash doirasi kengayadi;



✓ san'atga, go'zallikka nisbatan qiziqish shakllanadi va hayotdan lazzatlanish takomillashadi.

Ma'lumki, tasviriy san'atning asosiy vazifasi bu o'quvchilarni estetik, xususan, badiiy tarbiyalash ekan, u hayotdagi, tabiatdagi, san'atdagi, kishilarning munosabatlaridagi go'zalliklarni to'liq idrok etishni shakllantirishdir. Zotan go'zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta'sir etib, ma'naviy dunyosini boyitadi. Hayotga estetik munosabatda bo'lish ilhomning asosi bo'lib, mehnatni quvonch va ma'naviy manbaga aylantirishga yordam beradi.



O'quvchilar tasviriy san'atning qaysi janrida bo'lmasin unda qiziqish bilan ijod qiladilar. Ayniqsa, tasviriy san'atning natyurmort janri ularda alohida qiziqish uyg'otadi. Natyurmort - fransuzcha so'z bo'lib, «jonsiz tabiat» degan ma'noni anglatadi. Bu janrda musavvir atrofni o'rab turgan va turmushda qo'llaniladigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U o'z asarida tevarak atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro'y berayotganligini ham ko'rsata oladi. Taniqli ijodkor musavvirlardan Gollandiyalik mashhur rassomlar Villem Kalf ("Choynakli natyurmort"), Lodondagi Milliy galereya; Abraxam Beyerenning "Qisqichbaqali nonushta" (Los-Andjelesdagi san'at muzeyi), Vigelm Xedaning (Ermitaj, Rossiya) natyurmort asarlari dunyoda mashhur asarlarida hisoblanadi. O'zbekistonlik rassomlardan R.Axmedov, L.Salimjonova, G'.Abduraxmonov va boshqalar natyurmort janrida barakali ijod qilganlar. Natyurmort ishlashda bir – biridan rang va shaklan turli-tuman bo'lgan va jihatidan keskin farqlanadigan aniq rangli narsalar tanlab olinadi. Qo'yilgan natyurmortning barcha o'quvchilarga ko'rinarli bo'lishiga hamda yoritilishiga e'tibor berish zarur. Ma'lumki, yon tomondan yoritilganda

narsalarning shakli, xajmi ravshan ko‘rinadi, yorug‘-soya munosabati aniqlanadi. Mashg‘ulot avvalida natyurmort janri va unda ijod etgan mashhur rassomlar haqida qisqa bayon etiladi. Shundan keyin o‘quvchilarga tasviriy san‘at ashyolari haqida: akvarel bo‘yoqlar va mo‘yqalam, qog‘oz xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Keyin natyurmortning chiziqli abrisi qalamda belgilanadi. So‘ng, shakllarni bo‘yoqlar bilan yengilgina tasvirlab chiqiladi. O‘quvchilar bu jarayonda tasvirlash ko‘nikma va malaka oshiradilar, mo‘yqalamda ishlash malakalari takomillashadi. O‘quvchilarda qo‘l xarakatlari tezlashadi, ko‘zlari bo‘yoqlarning xillarini ajratishga moslashadi

Katta xajmdagi mo‘yqalam o‘ziga ko‘proq eritma oladi va bir yo‘la unga katta yuzani ya‘ni natyurmortdagi matolarni qoplash mumkin. Mo‘yqalamlarni ishlatishning bir qancha usullari mavjud. Keng yuzalarni bo‘yashga to‘g‘ri kelsa mo‘yqalam burchak ostida ushlanadi, xamda yuqoridan pastga qarab, chapdan o‘ngga tortilgan yengil «surtmalar» bilan qoplab tushiladi. Yengil va tiniq qilib bo‘yash kerak bo‘lganda esa, mo‘yqalam tik holatda ushlanadi va qog‘oz bo‘ylab ohista yurgaziladi

Ish jarayonida palitra uchun oq qalin qog‘oz yohud yassi likopchadan palitra sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Buyoqlar bilan ishlashda o‘quvchilar faqatgina to‘plamda bor ranglardan foydalanib qolmasdan, balki ranglarni «aralashtirib» topish yo‘llarini ham o‘rganadilar. Buni asta-sekin ketma-ket murakkablashuvchi mashqlar yordamida olib borilgan ma‘qul. Ranglarni bir-biriga aralashtirish orqali esa spektordagi barcha ranglarni vujudga keltirish mumkin.

Akvarel bo‘yoq bilan rasm ishlashni o‘rganishda natyurmortga qo‘yilgan buyumlarning o‘ziga qarab ishlash metodi samarali natija beradi. Ba‘zida o‘quvchilar natyurmort va boshqa shakllarni tasirlashda foto va ildyustrativ materiallarni o‘ziga qarab tasvirleydilar. Bu aslida noto‘g‘ri. Chunki o‘quvchi ro‘parasida turgan narsani yaqqol ko‘radi, uning hajmi, shakli, rangi, yoritilganlik va soya qismlari haqida to‘liq tushuncha hosil qiladilar va fazoviy jihatdan to‘liq tasavvur etadilar.

Akvarel bo‘yoqlar bilan ishlash uchun mo‘jallangan natyurmort tasviri yengil hamda, nozik chiziqlar bilan bajarilishi zarur, chunki aniq chizilgan shakl o‘chirg‘ich ishlatishga zaruriyat qoldirmaydi, natijada qog‘oz sirtini titilib ketishidan saqlaydi.

Buyoq moddalarining mayda zarrachalari qog‘oz sirtida yig‘ilib qolmasligi uchun albatta palitradan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Muayyan rang avvalo palitrada qorishti

Xulosa o‘rnida shularni ta‘kidlash joizki, narsalarning ranglarini aniqlash va tasvirlashda hamma vaqt ularni bir biriga taqqoslab ko‘riladi. O‘quvchilarning nigohi doimo qo‘yilgan natyurmortni barcha qismlari va fon o‘rtasidagi nisbiy qaramaqarshilikni sezishi kerak. Shuni unutmaslik lozimki, ishni asta-sekin va extiyotkorlik bilan boshlash hamda oxiriga yetkazish lozim. O‘quvchilar natyurmort qo‘yilmasini ishlash orqali akvarelda ishlash texnikasisi, rangshunoslik asoslarini

puхта o‘zlashtiradilar. Bu esa o‘quvchining badiiy qobiliyatini o‘stirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baymetov Botir Boltaboevich Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Year: 2020, Volume: 10, Issue:5 Firstpage: (1122) Lastpage: (1127).

2. Botir Boltabaevich Baymetov, Muratov Khusan Kholmuratovich, Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Vol. 63. No. 2, (2020) @ www.solidstatetechnology.us

3. Б. Байметов. История развития изобразительного искусства Узбекистана. Наука, образование и культура, Москва, 2016. стр. 19–23.

4. Baimetov Botir Boltabayevich, Sharipjonov Muhiddin. Development of students» descriptive competencies in pencil drawing practice. Issue 08, 2020 issn 2689–100x the usa journals, usa www.usajournalshub.com/index.php/tajssei...mso, ISSN 2689–100X The USA Journals, 261–267

5. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students’ Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. <http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei>. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 261-267.

6. Boltabayevich, B. B., & Shodieva, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools.

INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK XOLATLAR TALQIN

JDPU Chet tillar fakul'teti

2-bosqich magistranti

Anvarova Ma'mura Murodqosim qizi

Annotatsiya: Insonning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy dunyoda umume'tirof etilgan qadriyatdir. So'nggi paytlarda insoniyat zamonaviy dunyoda doimiy ravishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan uyg'un, ijodiy faol shaxsni shakllantirishdan jiddiy xavotirda. Qabul qilingan taassurotlarni ijodiy qayta ishlash uchun kognitiv jarayonlar va inson qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy san'at ta'limida ijodiy idrok, fikrlash va xotira fazilatlarining yaxlit tizimini shakllantirish sifatida tushuniladi. Ushbu maqolada o'quvchilarining badiiy idrokini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari ochib beriladi.

Tayanch so'zlar: postulat, retseptor, utilitar, ijtimoiy-madaniy, perception, ko'nikma.

Badiiy sikl fanlari doirasini kengaytirish zamonaviy san'at o'qituvchisidan nafaqat to'liq umumiy psixologik va pedagogik ta'limni, balki birinchi navbatda asosiy psixologik va pedagogik postulatlarini san'at pedagogikasining maxsus sohasini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish uchun tegishli kasbiy mahorat, bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. O'qituvchi uchun badiiy idrok jarayonini tashkil etish qonuniyatlarini bilish alohida ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilgan badiiy idrok birinchi va eng muhim pedagogik vazifani darhol hal qilishga yordam beradi: talaba unga taklif qilingan artefaktga qiziqadimi? Shu nuqtai nazardan, umumta'lim maktabida o'qituvchiga qo'yiladigan ijtimoiy-madaniy talablar va uning psixologik-pedagogik tayyorgarligining haqiqiy darajasi o'rtasida aniq qarama-qarshilik mavjud bo'lib, bu tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi, biz bunda psixologik va pedagogik jihatni belgilab olamiz. Badiiy idrok qanday ishlashining asosiy qonuniyatlarini tushunish qobiliyati birinchi navbatda idrokning psixologik mexanizmlarini bilishni talab qiladi.

Idrok (idrok, lotincha-perceptio) - dunyoning sub'ektiv qiyofasini shakllantiradigan kognitiv jarayondir. Bu ob'ekt yoki hodisaning hissiy retseptorlari yuzalariga bevosita ta'siri bilan umuman aks ettirishdan iborat aqliy jarayon. Idrok-bu ob'ektning sub'ektiv yaxlit qiyofasini tashkil etuvchi sezgilar bilan olingan ma'lumotlarni qabul qilish va o'zgartirishning murakkab jarayonini belgilovchi biologik-psixologik funktsiyalardan biri bo'lib, u analizatorlarga ushbu ob'ekt tomonidan uyg'otilgan sezgilar yig'indisi orqali yetkaziladi. Ob'ektning hissiy aks ettirish

shakli sifatida idrok ob'ektni bir butun sifatida tushunish, ob'ektning individual xususiyatlarini farqlash, unda harakat maqsadiga mos keladigan informatsion tarkibni tanlash va hissiy tasvirni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Idrok neyron impulslarini asab tizimi orqali miyaning muayyan qismlariga uzatishdan ko'ra ko'proqdir. Idrok, shuningdek, sub'ekt rag'batlantirish faktini va u haqidagi ba'zi g'oyalarni tan olishini anglatadi va buning uchun siz birinchi navbatda hissiy ma'lumotlarning kiritilishini his qilishingiz kerak, ya'ni sensatsiyani boshdan kechirishingiz kerak. Boshqacha qilib aytganda, idrok-bu sezgir retseptorlarning stimulyatsiyasini tushunish jarayoni. Idrokni hissiy signalga e'tibor qaratish, uni tahlil qilish va mazmunli dunyoqarashni yaratish uchun talqin qilishdan iborat vazifa deb o'ylash uchun asos bor [9].

Biz tadqiqotimiz uchun shunday muhim tushunchalarni bog'laymiz: badiiy idrok, badiiy idrokning xususiyatlari, ularning turlari va bosqichlari. Biz badiiy idrok tushunchasining tavsifini beramiz. Muhimi, ushbu kontseptsiya an'anaviy ravishda ko'p asrlar davomida falsafa, psixologiya va san'at tarixi kabi fanlar tomonidan faol o'rganilib kelinmoqda, ammo hozirgacha uning ko'plab jihatlari munozarali bo'lib qolmoqda. Amaldagi yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, tadqiqotning falsafiy istiqboli ko'rinadi: badiiy idrok-bu tashqi ko'rinishning ma'naviy mohiyatini idrok etish hissiy idrok etilgan shakl bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayon [1]. Ushbu atamaning bunday mazmunli talqini uni maxsus - faqat inson tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan kognitiv faoliyatning eng yuqori shakli bilan bog'laydi. Shu bilan birga, ushbu kognitiv faoliyatda insonning ma'naviy tajribasi va dunyoning qadriyat rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan: bunga nafaqat tashqi yoki ma'naviy olamlar haqidagi ma'lumotlar, balki shaxsning qadriyatga yo'naltirilgan (utilitar bo'lmagan) munosabati ham kiradi.

Ushbu kontseptsiyani o'rganishning psixologik jihati uni umumiy idrok etish qobiliyati va insonning badiiy madaniyat olamiga kirish qobiliyatining rivojlanishi natijasida aniqlashga imkon beradi [8]. Yangi olamlarni yaratish jarayonining natijasi-bu shaxsiy ma'noning qo'shimcha o'lchovlariga ega bo'lgan dunyoqarashni shakllantirish, insonning individual hodisalarga va umuman dunyoga sof individual ma'naviy va qadriyatga yo'naltirilgan munosabatini ifodalaydi. (A. Leontiev). Badiiy idrok-bu irsiy irsiy xususiyat emas, balki uning rivojlanishi uchun katta pedagogik kuch talab qiladigan shaxsning madaniy o'zlashtirilishi [9]. Badiiy idrok-bu asardan umuman muallif tomonidan o'rnatilgan g'oyaga o'tadigan idrok etuvchi sub'ektning sherikligi va birgalikda yaratilishining murakkab jarayoni. Badiiy idrok mahsuli ikkinchi darajali obraz va muallif obrazi va g'oyasiga mos kelishi yoki kelmasligi mumkin bo'lgan ma'noga aylanadi [5].

Badiiy psixologiyada badiiy idrok ikki jihatdan qaraladi:

a) voqelikni idrok etish,

b) badiiy asarlarni idrok etish.

Voqelikni badiiy idrok etish madaniyatdagi mavjud badiiy tushunchalar prizmasi, san'at tili prizmasi orqali idrok etish qobiliyatidir [2]. Aks holda, bir tomondan, bu hamma narsani tirik emas, balki haqiqat deb hisoblash va undagi aniq bo'lmagan narsalarni ochib berish qobiliyati, boshqa tomondan, asar muallifi bilan muloqot qilish va tushunish qobiliyatidir. muallifning niyatini, qoida tariqasida, talqin qilamiz. Umumiy insoniyat sifatida pertseptiv xususiyatlar bilan bog'liq bo'lmagan istisno hodisa [4]. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- hissiy taranglik (hissiy reaksiyalarning hissiyligi va intensivligi);
- yaxlitlik va farqlash (badiiy tuzilish elementlarining ma'nosini va izolyatsiyasini yaxlit tushunish, ularni tizimga kiritish qobiliyati,
- muallif kontseptsiyasi kontekstida individual til vositalarini ko'rib chiqish);
- hissiy va hissiy sintez ratsional lahzalar (hamdardlik va tafakkur lahzalarining birligi);
- bir necha darajadagi idrok (ongning turli darajalarida tushunish) [4].

Agar umumiy psixologiyada idrokning ob'ektivligi tashqi dunyodan olingan ma'lumotlarning bu dunyoga berilishi bo'lsa, unda badiiy idrokning ob'ektivligi insonning, asosan, atrofdagi ob'ektiv timsolga ega bo'lmagan tasvirlarni ideal tarzda ob'ektivlashtirish uchun maxsus qobiliyatidir. Jarayon tabiiy ravishda sodir bo'lishi uchun, bu yuqori darajadagi emotsionallik yoki badiiy idrokning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan mavzuda ishtirok etishni talab qiladi - hissiy taranglik: hissiyot va hissiy reaksiyalarning intensivligi. Bundan tashqari, shunga o'xshash holat sub'ektda faqat pertseptiv sub'ektning o'ziga xos mazmunini anglash orqali paydo bo'lishi mumkin: haqiqiy dunyoni yoki san'at asarini idrok etishdagi o'z tajribalari va munosabatlari. Idrokning yaxlitligi deganda turli xil usullarning (vizual, eshitish, taktil va boshqalar) sezgilarining umumiyliigi tushuniladi.)

Badiiy idrokning yaxlitligi ma'lum bir san'at turining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, uning mohiyati shundaki, bu yaxlitlikni tushunish idrok etish usulida qandaydir modallik bilan, masalan, voqelikning sof vizual tasviri bilan nomuvofiqlikni o'rnatadi [1].

Sifatning eng muhim xususiyati badiiy idrokning yaxlitligi, dunyoni o'zi bilan, o'z dunyo tajribalari bilan birlikda idrok etish qobiliyatidir [1]. Psixologiyada aniqlangan yaxlit idrokning badiiy idrokdan farqi shundaki, psixologiyada yaxlitlik ongsizlik darajasida harakat qiladigan apriori xususiyat sifatida belgilanadi va badiiy jihatdan bu xususiyatning mazmunli ma'nosini nazarda tutadi, o'zini qobiliyat sifatida namoyon qiladi. tasvirlarning yaxlitligini o'z-o'zidan payqash va tuzatish ong va ularning atrofidagi dunyo [7]. Strukturaviy Idrok. Har bir qabul qilingan tasvir ajralmas va o'ziga xos tuzilishga ega, ya'ni. Ma'no bo'yicha tartiblangan, makon va vaqt ichida tuzilgan o'zaro bog'liq elementlardan iborat bo'ladi. Biroq, badiiy idrok obrazining

tuzilishi yuqori darajadagi tartib sifatida tavsiflanadi: badiiy idrok obrazining tuzilishidagi farq bu sifatni anglashdir. Shunday qilib, har bir rassom u yoki bu obrazni yaratib, uni doimo boshdan kechiradi va ongli ravishda uning timsoli uchun shaklni tanlaydi. Badiiy idrokning izchilligi, bir tomondan, insonning birlamchi sezgilar emas, balki ongning o'rnatilgan tuzilmalari haqida aks ettirish qobiliyatidir [12], bu idrok sharoitlari ta'siridan qat'i nazar, tasvirning doimiyligi va to'g'riligini ta'minlaydi.

Badiiy idrokning izchilligi vizual faoliyatni o'zlashtirishning zaruriy shartidir [10], doimiyligi-bu shaxsning san'at materialida haqiqiy dunyoni ko'rish, uni san'atda mavjud va yaratilgan tasvir (yoki ifoda) qoidalariga muvofiq idrok etish qobiliyati, badiiy idrok obrazining bunday xususiyatini uning kutilmaganligi, o'ziga xosligi, o'ziga xosligi sifatida belgilaydi [3], psixologik nuqtai nazardan, badiiy idrokning mazmunliligi tabiiy idrok, signallarni ajratishning genetik qobiliyatidir. Badiiy idrokning mazmunliligi; birinchidan, bizning his-tuyg'ularimiz, his-tuyg'ularimiz, idrok ob'ektiga bo'lgan munosabatimiz; badiiy asar shaklining tuzilishi yoki haqiqat hodisasiga bog'liq. Faqat badiiy idrokning ko'rib chiqilgan fazilatlarining butun majmuasini rivojlantirish uning samarali rivojlanishiga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, badiiy idrok ko'p qatlamli tuzilma bo'lib, unda idrok va intellektual harakatlar natijalari, badiiy obrazlar asarida mujassamlangan tushuncha va ularning faol ijodiy mahorati, uning (ishning) ma'naviy va amaliy ta'siri bir-biriga kirib boradi. Bundan xulosa kelib chiqadi: badiiy idrok faol turga ishora qiladi.

Tahlil qilish natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

1) psixologik tushuncha sifatida idrok etish-bu sezgi, atrofdagi narsalar va hodisalarni idrok etishning yuqori darajasi, ob'ektlarni (hodisalarni) aks ettirish orqali dunyoning sub'ektiv qiyofasini shakllantirish. hislar; idrokning asosiy xususiyatlari ularning ob'ektivligi, yaxlitligi, doimiyligi, strukturalligi, apperception, mazmunliligi, faolligi; idrok uchun asos ob'ektiv va sub'ektiv turlardir; Psixologiya idrok etilgan ma'lumotni tushunish jarayonining universal to'rt darajali tuzilishini ajratib turadi: umumiy oqimdan stimullarni tayinlash; O'xshash belgini xotirada qidirish, qabul qilingan ob'ektni turkumlash, yakuniy xulosani shakllantirish.

2) Garchi badiiy idrok psixologiyada insonning umumiy idrok etish qobiliyatining rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan qobiliyat sifatida belgilangan bo'lsa-da, falsafada hissiyotdan keyingi kognitiv jarayon sifatida emas, balki inson kognitiv faoliyatining eng yuqori shakli sifatida qaraladi., uning doirasida inson bo'lish:

a) shaxsiy ma'noga asoslangan yangi olamlarni yaratish (tadqiqotning psixologik jihati);

b) voqelik va san'at asarlarini badiiy idrok etish jarayonlarini amalga oshirish (badiiy psixologiyani o'rganish jihati), natijasi badiiy obraz yoki sub'ektiv ikkilamchi obraz bo'lishi mumkin yoki bo'lmasligi mumkin muallifning surati va g'oyasi bilan rozi

bo'lish. Bu holat san'at pedagogikasi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u ta'lim shakllarini va ularni aniq tashkil etishni asosli va ilmiy asoslangan tanlashni, shuningdek, badiiy asarlarni o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra idrok etishni tashkil etishning ilmiy asoslangan usullarini bilishni talab qiladi (vaqtinchalik, fazoviy, fazoviy-vaqtinchalik);

3) ro'yxat badiiy idrok xususiyatlarining (yoki nomenklaturasi) har doim ham mulk nomi bilan ham, uning mazmuni bilan ham umumiy psixologiyaga to'g'ri kelmaydi; badiiy idrok xususiyatlari ro'yxatida idrokning umumiy psixologik xususiyatlari nomenklaturasida mavjud bo'lmagan izchillik kabi o'ziga xos xususiyat mavjud; idrok va badiiy idrok xususiyatlarining mohiyatli maydonlarining mos kelmasligi ob'ektivlik, yaxlitlik, tuzilish, mazmunlilik kabi jihatlarida kuzatiladi.

4) idrokning ikki turidan farqli o'laroq, badiiy idrok - bu faqat faolga tegishli, uni rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar estetik tarbiya orqali ta'minlanadi;

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki badiiy idrok etish bosqichlari ro'yxati son jihatidan mos keladi va har bir kontseptsianing haqiqiy mazmunida emas, balki har bir bosqichda hal qilingan vazifalar mazmunida izohlash mumkin. Idrok etish bosqichlarining mazmuni ularni umumlashtirish orqali belgilanadi va turli xil san'at asarlarini badiiy idrok etishning ko'plab darajalarida qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asmolov, A.G. Psixologiya lichnosti: principi obshepsixologicheskogo analiza: uchebnik / A.G. Asmolov. – Moskva: Akademiya, 2002. – 416 s.
2. Arnxeym R. Iskusstvo i vizualnoye vospriyatiye. - M.: Progress, 1974.
3. Vetlugina A. Zadachi, formi i metodi nравstvenno-esteticheskogo vospitaniya detey. Pod red. N.A. Vetluginoy. — M.: Prosvesheniye, 1989. — 79 s.
4. Davidov V.V. Problemi razvivayushogo obucheniya. Opit teoreticheskogo i eksperimentalnogo psixologicheskogo issledovaniya. - M.: Pedagogika, 1986. - 240 s. - (Trudi d.chl. i chl.-kor. APN SSSR).
5. Jukovskiy V.I., Pivovarov D.V. Zrimaya sushnost. Vizualnoye mishleniye v izobrazitelnom iskusstve. Sverdlovsk: Izd-vo Uralskogo universiteta. 1991. - 284 s.
6. Kudina G.N., Melik-Pashayev A.A., Novlyanskaya Z.N. Kak razvivat xudojestvennoye vospriyatiye u shkolnikov// Pedagogika i psixologiya. - M.Znaniye, 1988
7. Tursunovich, R. I., & Ataboyev, I. M. (2023). GAZETA USLUBINING ASOSIY XUSUSIYATLARI. DAVRIY NASHRLAR SARLAVHALARINING ROLI VA AHAMIYATI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(19), 29-38.
8. Tursunovich, R. I., & Ataboyev, I. M. (2023). INGLIZ GAZETA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA SARLAVHALARNING ISHLASHI. *MODELS AND*

METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(19), 22-28.

9. Tursunovich, R. I., & Ataboyev, I. M. (2023). HOW CAN STUDENTS GAIN INTEREST IN LEARNING ENGLISH?. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(19), 16-21.

10. Tursunovich, R. I., & Turgunova, F. R. (2023). INNOVATIVE METHODS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 1(11), 23-28.

11. Tursunovich, R. I., & Turgunova, F. R. (2023). FORMATION OF CRITICAL THINKING IN SCHOOLCHILDREN. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 1(11), 35-40.

12. Tursunovich, R. I., & Turgunova, F. R. (2023). EFFECTIVE GAME TECHNOLOGIES FOR PRESCHOOLERS'SPEECH. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 1(11), 29-34.

13. Tursunovich, R. I., & Ataboyev, I. M. (2023). HOW CAN STUDENTS GAIN INTEREST IN LEARNING ENGLISH?. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(19), 16-21.

14. Mirza o'g'li, A. I. (2022). O'QITUVCHINING TANBEHIGA VA TANQIDIY BAHOSIGA ANIQ JAVOB SIFATIDA TALABAGA TANBEH BERISH. *Journal of new century innovations*, 19(1), 142-148.

15. Ataboyev, I. (2022). RESPONDING TO A SPEECH REPROACH. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*.

DEVELOPING LANGUAGE SKILLS IN ENGLISH CLASSES

Sulaymanova Hamida Shamsidinovna

Teacher of English at school 113, Pstdargom district, Samarkand region

Abstract: This article examines the problems of improving the effectiveness of English language classes in secondary schools, paying special attention to the development of each of the language skills, listening comprehension, speaking, reading and writing.

In order to make your nervous system more stable, you can contact either a psychologist or a psychiatrist who will prescribe special procedures. To date, special procedures include: selection of medicines, color treatment, music treatment, aromatherapy, wellness gymnastics, breathing techniques, meditation, relaxing massage, exposure to special points, hypnosis. When contacting a psychologist, other methods of mental health correction are used: a detailed analysis of problems and the search for an answer, meditation, a professional view from the outside and tips on minimizing stress in a person's life.

There are general tips for getting rid of stress in a tense moment:

Calm breathing for several minutes. Try to focus on your breathing, on relaxing your body. Try to strain each muscle in turn and then relax. Analyze situations and understand what is the cause of nervous tension. Find ways out of a stressful situation and choose the optimal one. To summarize the work done on yourself.

Thus, stress negatively affects both the mental and physical condition of a person, therefore it is necessary to prevent its occurrence and further development. A person should not be controlled by stress, it is impossible to be subject to the slightest changes, which then together will cause huge harm to both mental and physical health. When choosing the optimal stress response strategy, it is necessary to prioritize. The complete removal of anxiety significantly reduces a person's ability to realize himself as much as possible in professional activity, while excessive stress causes serious disorders in the body. In order to control your own mental state, you need to love yourself, treat your body, soul with unconditional respect. Those who have mastered the basics of self-regulation using examples of controlled mood harmonization and arbitrary control of well-being will certainly go further, in the direction of comprehending the miracle of transforming creativity of conscious development. A person who knows himself, his needs and how to satisfy them always has a choice in the systematic replenishment of energy.

References

1. Shcherbatykh Yu.V. Psychology of stress and methods of correction. - St. Petersburg: Peter, 2015. – 256 p.
2. Nemov R.S., General fundamentals of psychology. Book 1, Enlightenment. - M., 1994. – 231 p.
3. Selye G. Essays on the adaptation syndrome. - M.: Medgiz, 1960. - 255s. – 84 p.
4. Kitaev-Smyk, L. A. Psychology of stress / L. A. Kataev, Smyk. M. : Nauka, 1983. – 368 p.
5. Serebryakova T.A. Psychology of stress: A textbook. – N.Novgorod: VGIPU, 2007. – 143 s

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA QO'SHIMCHA MASHQLARDAN FOYDALANISH USLUBLARI

Sherniyazova Nelufar Ongarbaeva
Ruza Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim
fakulteti 2-kurs talabalari

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari, bunda interfaol metodlarning ahamiyati va ularning darsda qo'llashning samarali natijalari haqida so'z yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: mashqlar, mukammal, nazariy amaliy mashq, Aqliy hujum metodi, Muammoli ta'lim metodi, Kichik guruhlarda ishlash metodi, grammatik tushuncha.

Boshlang'ich sinflarda yangi mavzuni mustahkamlashda o'quvchilarga mavzuga oid mashqlar bajarish muhim ahamiyatga ega. Chunki, qoida va mavzuga oid grammatik tushuncha o'quvchilarga o'rgatilgandan so'ng, mavzuga oid mashqlar bajarilmasa, o'rgatilgan qoida va grammatik tushunchalarni o'quvchilar mukammal ravishda o'rganib, o'zlashtirib olishlari qiyin bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari da dastlab mavzu o'quvchilar tomonidan mustahkam o'zlashtirilgandan keyin, mavzuga oid grammatik tushunchalarni ayrim misollar orqali tushuntiriladi, darslikda berilgan mashqni bajartiriladi, biroq mavzuga oid qo'shimcha mashqlar berilmaydi. Natijada mavzuga oid qoidani o'quvchilarga tushuntirish biroz qiyinroq bo'ladi. Grammatik tushunchalarni berish jarayoni bir muncha vaqtni sarflashni talab qildi. Shunday bo'lishiga qaramay, yangi mavzuni o'zlashtirishda va o'quvchilar tomonidan mustahkamlashda, albatta, mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarilishi kerak.

O'quvchilarda yangi mavzuni mustahkamlashda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajartirganimizda quyidagi natijalarga erishiladi:

1. Nazariya amaliy mashq bilan bog'lanadi;
2. Amaliy mashqlar bajarish orqali o'quvchilarda shakllangan, grammatik tushunchalar mustahkamlanadi;
3. O'quvchilarning mustaqil ravishda mashq bajarish ko'nikmalari shakllanadi;
4. Uyga berilgan mashqlarni qanday bajarish haqida o'quvchilarda ko'nikma paydo bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda yangi mavzuni o'zlashtirish va mustahkamlashda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rin egallaydi. O'quvchilar, dastlab, o'qituvchi nazorati ostida mashqlar bajarishlari lozim. Chunki, mavzuga oid mashq ilk marta bajarilayotganda, o'quvchilar mashqni notog'ri

bajarib qo'yishlari mumkin. Birinchi va ikkinchi mashqlar o'qituvchi nazorati ostida, ba'zan uning ko'magi bilan bajarilsa, mashq to'g'ri bajariladi, mashqdagi so'zlarga savol berib qoidalar chiqariladi, amaliy mashq nazariya bilan bog'lanadi. Shuningdek, mashqlar bajarishda interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarni darsga bo'lgan munosabatlarini oshiradi, qo'shimcha mashqlar bajarishga qiziqishlarini oshiradi. Asosiysi, o'quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllanib borishi rivojlanadi. O'quvchilar darsda qo'shimcha mashqlar bajarishi jarayonida erkin harakat qiladilar, erkin fikrlaydilar, bajarilayotgan mashqqa o'zlarining erkin ravishda munosabatlarini ifodalay oladilar.

Bunda quyidagi interfaol usullardan foydalanilsa aqlga muvofiq:

1. Aqliy hujum metodi;
2. Muammoli ta'lim metodi;
3. Kichik guruhlarda ishlash metodi

Ushbu noan'anaviy interfaol usullar yordamida o'quvchilarga qo'shimcha mashqlar bajartirganda o'qish-o'rgatish jarayonini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida aloqani tiklaydi. Motivatsiya yuqori darajada bo'lishini taminlaydi, o'tilgan materialni puxta xotirada saqlab qolishga imkon beradi. Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam beradi.

Aqliy hujum interfaol metodidan foydalanganda o'quvchilarga mashq shartidan kelib-chiqib o'quvchilar aqliga hujum qilinadi, o'quvchilarda fikr va g'oyalari tug'ildi. Bu fikr va g'oyalarni umumlashtirib, yagona, to'g'ri xulosa chiqariladi.

Muommoli ta'lim interfaol usulidan foydalanib, o'quvchilarga o'tilgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni vujudga keltirib, ularning ushbu muammoli vaziyatni bartaraf etishlari kerak bo'ladi. Ushbu interfaol metod o'quvchilarni fikrlashga, muammoni qanday yechim, bartaraf etish choralarini o'ylashga, fikr va xulosalar chiqarishga, o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon eta olishga katta yordam beradi.

Kichik guruhlarda ishlash interfaol metodidan kengroq foydalangan ma'qul, chunki ushbu metod o'quvchilarni dars davomida quvnoqroq bo'lishiga, kayfiyatlarini yuqori bo'lishini taminlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kichik guruhlarda ishlash interfaol usuli yordamida mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarganlarida erkin harakat qiladilar, jamoalar g'alabasi uchun kurashadilar, mashqni tez va sifatli bajarishga harakat qiladilar.

Boshlang'ich sinflarda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarishning quyidagi samarali natijalariga erishishda quyidagilarni aniqlash mumkin:

-o'quvchilarning ona tili faniga nisbatan munosabatlari ijobiy tomonga o'zgaradi;

- ona tili faniga bo'lgan muhabbatlari yana oshadi;
- mashqlar bajarish ko'nikmalari rivojlanadi;
- mustaqil ravishda mashq bajarish ko'nikmalari shakllanadi;

- sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari rivojlanadi;
- o'quvchilar yangi mavzuni tez va qisqa fursat ichida o'zlashtirishga erishadilar.

Demak, yo'qoridagi aytilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, yangi mavzuni o'zlashtirishda, mustahkamlashda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ona tili grammatikasini o'rgatishda boshlang'ich sinflarda mavzuga oid qo'shimcha mashqlarni o'qituvchi nazorati ostida bajarish o'quvchilar bilimni oshirishda katta yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mavzuga bog'lab mashqlar tuzushga o'rgatish juda ham nozik masala bo'lib, o'quvchidan, avvalo, o'zbek tilining grammatikasini mukammal egallashni, mavzuga oid mashqlar bajara olishni talab qiladi. Mavzuga oid mashq bajara olmaydigan o'quvchi mavzuga bog'lab mashq tuza olmaydi. Shuning uchun ham mavzuga bog'lab mashq tuzishga o'rgatishda o'quvchilarga quyidagi tartibda ta'lim –tarbiya jarayonini tashkil qilish tavsiya etiladi:

- o'quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllantirish;
- mavzuni puxta egallash;
- mavzuga oid savollarga javob bera olish;
- mavzuga oid berilgan testni yecha olish
- mavzuga oid kartochkalar bilan ishlay olish;

- mavzuga oid mashqlarni mustaqil ravishda yecha olish; Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqorida sanab o'tilgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirilgandan so'ng mavzuga oid mashq tuzishga o'rgatish jarayonini boshlash imkoniyati tug'iladi. Mavzuga bog'lab mashq tuza olish o'quvchilarga o'rgatish uchun berilayotgan mavzuni yanada puxta egallash imkoniyatini beradi. Mavzuga oid grammatik tushunchalar yanada mustahkamlanadi. Shu bilan birga so'zlarni to'g'ri yozishga o'gatish orqali ularning imloviy savodxonligi oshiriladi, chiroyli yozuv malakalari mustahkamlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mavzuga oid mashqlar tuzishga o'gatishda dastlab mavzuga oid savollar tuzishga o'rgatish lozim bo'ladi. Savol tuzish uchun ham, albatta, mavzuni puxta egallagan o'quvchilar bo'lishi kerak. Mavzuni puxta egallamagan o'quvchilar mavzuga oid savollar tuza olmaydilar, savollar tuzishga qiynaladilar. Mavzuni puxta egallagan o'quvchilar esa mavzuga oid savollarni qiyinchiliklarsiz tuza oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqudusov O.A. v.b. , Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaril Toshkent, 2011-yil.
 2. Abdullaeva K. va b. Ona tili, Toshkent, 1999-yil
- Internet materiallari: 1. <http://www.google.co.uz/> - —Mashqlar to'plami
2. <http://www.referat.uz/> - —O'quvchilarni mashq ishlashga o'rgatish

SHO'RLANGAN TUPROQLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASHDAGI DOLZARB MUAMMOLARI.

*Kozibayev Nurali Ergashboy o'g'li.
Urganch Davlat Universiteti. Urganch*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda tuproqning sho'rlanish sabablari, meliorativ holat oldini olish va bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tuproq, sho'rlanish, ona jins, sizot suvlari, tuzlar, antropogen omil.

Аннотация: В статье представлена информация о причинах засоления почв на сегодняшний день, а также о способах его предотвращения и устранения.

Ключевые слова: почва, засоление, материнская порода, подземные воды, соли, антропогенный фактор.

Annotation: This article provides information on the causes of soil salinization today, and ways to prevent and eliminate it.

Key words: Soil, salinity, parent rock, groundwater, salts, anthropogenic factor.

Tuproq tugaydigan va tiklanadigan resurslarga kiradi. Tuzilishiga ko'ra tuproqda 3 asosiy qatlam ajratiladi: A-eng ustki gumus (chirindi)li qatlam; B-yuqori qatlamdan mineral va organik birikmalar to'planadigan qatlam. C-tuproq vujudga keladigan ona jins qatlami. Tuproqning har bir gorizonti organik va mineral birikmalar aralashmasidan iborat. Tuproq tarixiy tarkib topgan murakkab, mustaqil tabiiy jism bo'lib, o'zgaruvchan dinamik hosiladir. Yer yuzi turli qobiqlari o'rtasidagi aloqadorlik tuproq orqali amalga oshadi. Tuproq tabiiy landshaftlarning asosi hisoblanadi. Biosferada bajaradigan faoliyatiga qarab tuproqni organik hayot zanjirining eng muhim halqasi, deb yuritsa bo'ladi. Tuproqda u yoki bu mikroelementlar etishmasligi yoki ortiqchaligi organizmlarning rivojlanishi va insonning sog'lig'iga bevosita ta'sir ko'rsatadi; Tuproq kasallik tarqatadigan ko'plab mikroorganizmlar uchun zarur hayot muhiti hisoblanadi. Tuproqda sil, vabo, o'lat, ichterlama, burutsellioz va boshqa kasalliklarning qo'zgatuvchilari bo'lishi mumkin. Biosferada tuproqning eng muhim roli shundaki, barcha organizmlarning qoldiqlari tuproqda parchalanadi va yana mineral birikmalarga aylanadi, Tuproq qatlamisiz yer yuzida hayotni tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

Dehqonchilikning yuzaga kelishi bilan tuproqning kishilar hayotidagi ahamiyati keskin oshib ketgan. Inson o'zi uchun zarur bo'lgan barcha oziq

mahsulotlari va ko'plab boshqa vositalarni bevosita yoki bilvosita tuproqdan oladi. Yer yuzidagi hozirgi mavjud tuproq qatlami jamiyat taraqqiyoti natijasida kuchli o'zgargan.

Insoniyat tarixi davomida 2 mlrd. dan ortiq unumdor tuproqli yerlar yaroqsiz holga keltirilgan. Har yili sayyoramizdagi qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar maydoni sho'r bosishi, emirilishi natijasida 5-7 mln.gektarga kamaymoqda. Tuproqlarga inson ta'si-rining kuchayishi sug'oriladigan dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi bilan bog'liq. Sug'oriladigan (obikor) dehqonchilik Movarounnahrda ham qariyb 5 ming yillik tarixga ega. Yer yuzida dehqonchilik maqsadlarida ishlatiladigan yerlar mavjud yerlar hududining 10 foizini tashkil qiladi va dunyo aholisi jon boshiga 0,5 ga dan to'g'ri keladi. Yer yuzi tuproq qatlaminin hozirgi holati birinchi navbatda kishilik jamiyatining faoliyati bilan belgilanadi. Inson tuproqlarga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inson tuproqlarning hosildorligini oshirishi, yerlarning holatini yaxshilashi mumkin. Shuning bilan birga shahar qurilishi, atrof muhitning ifloslanishi, agrotexnik tadbirlarning talabga javob bermasligi natijasida tuproqlar bevosita yo'q qilinishi, yaroqsiz holga kelishi, emirilishi mumkin. Hozirgi kunda tuproqlar maydonining kamayishi uning tiklanishidan minglab marta tezroq, amalga oshmoqda.

Tabiatda shamol va suv ta'sirida tuproqlarning emirilishi yoki eroziyasi kuzatiladi. Inson faoliyati natijasida tezlashgan suv va shamol eroziyasi amalga oshadi. Antropogen eroziya tuproq resurslaridan noto'g'ri foydalanishning oqibati bo'lib, uning asosiy sabablari o'rmon va to'qaylarni qirqib yuborish, yaylovlarda chorva mollarni boqish normasiga amal qilmaslik, dehqonchilik yuritishning noto'g'ri metodlaridan foydalanish va boshqalardir. Turli ma'lumotlarga ko'ra har kuni yer yuzida eroziya natijasida 3500 gektar unumdor tuproqli yerlar ishdan chiqadi. Suv eroziyasi ko'proq, tog' oldi va tog'li rayonlarda, shamol eroziyasi tekisliklarda kuzatiladi. Chang bo'ronlari natijasida bir necha soat ichida tuproqning 25 santimetr gacha bo'lgan qatlamini shamol butunlay uchirib ketganligi haqida malumotlar mavjud.

Eroziya jarayonlarining oldini olish va unga qarshi kurashish uchun ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Bularga o'simliklar qoplamini tiklash, agrotexnik tadbirlarni to'g'ri olib borish, yashil himoya qalqonlarini bunyod qilish, gidrotexnik tadbirlarni rejali o'tkazish va boshqalar kiradi. Sug'oriladigan dehqonchilik rayonlarida tuproqlarning sho'rlanishi asosiy ekologik muammolardan hisoblanadi. Tuproqlarning sho'rlanishi sug'orishni noto'g'ri olib borganda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi natijasida ro'y beradi. Birlamchi va ikkilamchi sho'rlanish kuzatiladi. Ikkilamchi sho'rlanishda suv kappilyarlar orqali ko'tarilib tuzi tuproqda qoladi yoki ortiqcha sug'orish natijasida yer osti suvlari erigan tuzlar bilan sho'rlanadi. Ikkilamchi sho'rlanish ko'proq zarar etkazadi.

Tuproqlarning sho'rlanishi Osiyo, Amerika va Afrikaning ko'pchilik mamlakatlarida kuzatiladi. Sho'rlanishning oldini olish uchun zovurlar o'tkaziladi, yerlarning sho'ri yuviladi. Tuproqlarning botqoqlanishi asosan namlik ko'p joylarda kuzatiladi. Suv omborlari atrofida ham botqoqlangan uchastkalar vujudga keladi. Botqoqlarni quritish uchun maxsus melioratsiya tadbirlari o'tkaziladi. Tuproqlarni ifloslanishdan saqlash muhim ahamiyatga ega. qishloq xo'jaligini kimyolashtirish tuproqlarning turli kimyoviy birikmalar bilan ifloslanishini kuchaytirib yuboradi. Mineral o'g'itlar to'g'ri tanlanmasa va me'yorida ishlatilmasa tuproqning holati o'zgaradi, unumdorlik xususiyati buziladi. Ayniqsa, zararkunandalarga qarshi, begona o'tlarga va o'simlik kasalliklariga chora sifatida keng foydalaniladigan pestitsidlar gerbisidlar, insektisidlar, defoliantlarni me'yoridan ortiq ishlatish tuproqqa juda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Pestitsidlar tuproqdagi foydali mikroorganizmlarni nobud qiladi va chirindining kamayishiga olib keladi. Masalan, DDT pestisidi ishlatilganidan 15 yil keyin ham tuproq tarkibida uning hali mavjudligi aniqlangan. Pestitsidlar oziq zanjiri orqali o'tib, inson sog'lig'iga ham zarar etkazadi. Hozirgi kunda olimlar qisqa vaqt ta'sir etib sung parchalanib ketadigan biosidlar ustida ishlamoqdalar. Tuproqlar sanoat korxonalarini, transport chiqindilari, kommunal-maishiy chiqindilar bilan ham ifloslanadi. Kimyo va metallurgiya korxonalarini, tog' kon sanoati chiqindilari tuproqlarni ayniqsa kuchli ifloslaydi va ishdan chiqaradi. Tuproqda simob, qo'rg'oshin, ftor va boshqa o'ta zaharli birikmalar to'planadi. Bu o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bazilari nobud boladi va insonlarda turli xavfli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Tuproqlarni maxsus tadbirlar o'tkazib tozalash qiyin. Shuning uchun tuproqlarni ifloslanishidan saqlash tadbirlari o'z vaqtida o'tkazilishi va qonuniy nazorat o'rnatilishi kerak. Qupg'oqchil yerlarda cho'lga aylanish jarayonlarinining oldini olish muhim ahamitga ega. Harakatchan qumlarning yo'lini to'sish yashil qalqonlar bunyod qilish tuproqlarni saqlab qoladi. Tuproq qatlamining turli yo'llar bilan nest-nobud qilinishi muammosi ham mavjud. Shahar va yo'l qurilishi natijasida unumdor tuproqlar nobud qilinadi. Yer osti boyliklarini qazib olishda ham ko'plab tuproqlar nobud bo'ladi. Bunday jarayonlarni oldini olishning maxsus tadbirlari mavjuddir. O'zbekiston qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida yer resurslarini 95 foizi va suv resursarining 85 foizi ishlatiladi. Sug'oriladigan yerlar umumiy yer fondining 15 foizini tashkil qiladi. (T zbekistonda mavjud sug'oriladigan yerlarning 50 foizdan ortig'i sho'rlangan. ayniqsa Qoraqalpog'iston respublikasi Buxoro va Sirdaryo viloyatlari tuproqlari kuchli sho'rlangan. Tuproqlarda chirindi miqdori 30-50 foizgacha kamaygan. 2 mln.gektardan ortiq yerlar eroziyaga uchragan. Bunday yerlar Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida keng tarqalgan. Tuproqlarning pestitsidlar bilan ifloslanish darajasi yuqori.

Bunday vaziyatning asosiy sabablaridan biri, uzoq vaqt davomida paxta monokulturasida hukmronligidir. Oxirgi yillarda paxta maydonlarining kamayishi, almashlab ekishning kengroq joriy qilinishi, mineral o'g'itlarni ishlatilishining me'yorlashtirilishi va boshqa tadbirlar tuproqlar holatining yaxshilanishiga olib kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. Abdullaev O., Toshmatov Z., O'zbekiston ekologiyasi bugun va ertaga. T. Fan, 1992 y.
2. Rafikov A.A., Geoekologik muammolar. T. Ukituvchi, 1997, 112b.
3. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera. T. Ukituvchi, 1995, 320 b.
4. Tuxtaev A.S. ekologiya. T. Ukituvchi, 1988, 192b.
5. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T. Ukituvchi, 1994.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA IMLO XATOLAR USTIDA ISHLASH.

*Mambetnazarova Gozzal Orazbayevna
Shabatova Rabig'a Janasbay-qizi
A'jiniyoz nomidagi Nukus Davlat
pedagogika Institutining "Boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari.
Qoraqolpog'iston, Nukus*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozishda so'zlarni xato yozish sabablari, oquvchilarni imlo qoidalari bilan tanishtirgan xolda to'g'ri va tez yozishga o'rgatish. O'quvchilarning yozishini kuzatib, qaysi so'zlarda ko'p xato yazganligini o'rganib chiqish va ularni ustida ishlash. Imloviy sezgirlikni o'stirish bo'yicha so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, imlo qoidalari, to'g'ri yozish, xato yozilgan so'zlar, imloviy sezgirlik.

Yurtimizda oldimizga qo'ygan ezgu g'oya va maqsadlarimizni amalga oshirish yo'lida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab ularning ijodiy komol topish yo'lida boshlang'ich ta'limning o'rni katta, sababi barkamol shaxslarni yaratishda boshlang'ich ta'lim poydevor vazifani bajaradi. O'sib kelayotgan bolalarni barkamol shaxslar etib tayyorlash hozirgi kunning dolzarb muommosidir bilim olish ko'nikmasini shakllantirishda boshlang'ich sinf muhim bosqichdir. Savodxonlikning asosiy vazifasi to'g'ri yozish va to'g'ri o'qish. To'g'ri yozishda imlo qoidalarini yaxshi bilishi kerak. Uni yaxshi o'rgatish esa boshlang'ich sinf o'qituvchisining muhim vazifasi. O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan qoidaga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi.

Imlo savodxonlikning ahamiyati juda yuqori. Imlo so'zi yunoncha to'g'ri yozaman ma'nosini anglatadi. Imlo - bu jamiyat qabul qiladigan va ishlatadigan tarixan shakllangan qoidalar va imlolar tizimi.

Imloning maqsadi-yozma mulohazaning qulay vositasi bo'lib xizmat qilish, shuning uchun uning bevosita maqsadi nutq mazmunini to'g'ri va aniq yetkazish, muayyan fikrlarni ifodalashdir. Imlo savodxonligining ahamiyati ijtimoiy nuqtaiy nazardan ko'rib chiqiladi. Insonning umumiy madaniyatining bir qismi sifatida, shaxsning ta'lim va tarbiya belgisi sifatida, shuningdek nutq va funksional jihatlarda nutq muommolarini hal qilish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. To'g'ri yozishni

o'rganish boshlang'ich sinf bolalari uchun eng ahamiyatli qurol hisoblanadi. To'g'ri o'qiy olmaydigan bola to'g'ri yozishni bilmaydi. Aksincha to'g'ri yoza olmasa to'g'ri o'qiy olmaydi. Bu ularning kelajakdagi o'qishiga yomon ta'sir ko'rsatadi. Dastlab har bir so'z, uning o'qilishi, yozilishi bo'yicha ish olib borib, keyin grammatik qoidaga tegishli mavzular o'tiladi. Masalan; <<Gap mavzusini o'tishda gapni to'g'ri ko'chirib yoz. Gapni bosh haribdan boshlab yoz. Gapning songiga nuqta qoy>> va boshqa sodda qoidalar boyicha ishlaydi. K.D.Uchinskiy takidlab o'tganidek: << Faqat grammatikani o'rganish orqaligina o'quvchilarni savodxonlikka o'rgata olmaymiz, grammatikaga asoslangan amaliy ishlarni ham bajarish kerak. Ikkalasini barobar o'zlashtirish orqaligina maqsadga erisha oladi. O'quvchilarni to'g'ri yozishga birdaniga o'rgatish qiyin. Sababi;

Birinchi. Gapiyish bilan oylashga bog'liq, shuning uchun dastlab, bolaning sintaksis tamonidan gapni to'g'ri tuza bilishi stilistik tamonidan esa so'zlarni o'rnida to'g'ri qollana bilishi bilan bog'liq.

Ikkinchi. Bolalarni to'g'ri yozishga o'rgatish, unga ko'niktirish qiyin ish. Sababi, o'qituvchi sodda mashqdan boshlab, bolalarning ijodiy ish ishlash davri orasidagi yo'lni amaliy tarafdin bosib o'tadi. Bu esa so'zni fonetik va morfemik jihatdan analiz qilish, degan gap. Bu maktabga kelgan kundan boshlab boshlang'ich sinfni tamomlash orasidagi bosib o'tiladigan yo'l.

O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan qoidaga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasalishiga oid materiallarni ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik 3 nazariyaga bog'liq xolda o'rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar «Ot», «Sifat», «Son», «Kishlik olmoshlari», «Fe'l» mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishni ta'minlaydi. Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan so'ng o'rganiladi. Masalan, otlarning kelishiklar bilan turlanishi o'rganilgach, kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi ko'nikma shakllantiriladi. «Sifat» mavzusini o'rganish -roq qo'shimchasining va qip-qizil, yumyumaloq kabi sifatlarning yozilishiga, «Fe'l» mavzusini o'rganish bo'lishsizlik (~ma) va o'tgan zamon (-di) qo'shimchalarining

yoziilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini o'rgatishga bunday yondashish boshlang'ich sinflarda barcha orfografik materiallarni o'rganishda tipik hisoblanadi, Imlo qoidalari ustida ishlash - murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o'quvchilarning qoida ifodasini o'rganib olishlari, qoidani yozuv tajribasiga tadbiiq etish uning asosiy komponentlari hisoblanadi. Qoida mohiyatini ochish qoida so'zning qaysi qismini, qaysi so'z turkumi yoki grammatik shaklni yozishni boshqarishini, bunda qaysi belgilar etakchi ekanini tushuntirish lozim. O'quvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda o'qituvchi bu etakchi belgilarni albatta hisobga oladi. Masalan, oxiri yumshatish belgisi bilan tugagan so'zlarga qo'shimcha qo'shilganda, yumshatish belgisi yozimasligi haqidagi qoidaning (2-sinf) moqiyatini ochishda o'quvchilar oxiri yumshatish belgisi bilan tugagan so'z aytadilar, keyin o'qituvchi rahbarligida shu so'z bilan gap tuzadilar. O'qituvchi doskaga yozib boradi: lager, royal. Men yozgi dam olishda lagerda bo'ldim. Yulduz royalni yaxshi chaladi. Lager -lagerda, royal - royalni so'zlarini taqqoslaydilar; lagerda va royalni so'zlarini tarkibiga ko'ra taxlil qiladilar va lager, royal - o'zak, -da va -ni qo'shimcha ekanini aytadilar. O'qituvchi o'quvchilarga bu so'zlarga qo'shimcha qushilganda, qanday o'zgarish ro'y berganini o'ylab ko'rishni tobshiradi. Muammoli vaziyat yaratiladi. O'quvchilar bunday vaziyatni 1-sinfda ham kuzatganlar, shuning uchun fahmlab aytib berishlari mumkin. Suhbat xulosalanadi. Qoida ifodasi ustida darslik buyicha ishlanadi. Bunda o'quvchilarning qoida strukturasi anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga bo'linadi. O'quvchilar o'rganilgan qoida misol aytish va xilma-xil mashqlarni bajarish yo'li bilan uni yangi til materialiga, ya'ni yozuv tajribasiga tadbiiq etadilar. Qoida ustida ishlash metodikani shu qoidaning harakteriga qarab tanlanadi. Masalan, bo'lishsizliq qo'shimchasi (~ma) ning yozilishini deduktiv yo'l bilan o'rgatish mumkin. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (-ga) ning oxiri -q bilan tugagan otlarga -qa, -q bilan tugagan otlarga -qa shaklida qo'shilishi haqida induktiv yo'l bilan tushuntirish maqsadga muvofiq. O'quvchilar qoidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsalar, uni o'zlashtirish juda qulay bo'ladi. Chunki, bolalar aniq material bilan ishlaydilar va uni taxlil qilish vaqtida qoidaning muhim tomonlarini ajratadilar, qoidani ongli o'zlashtiradilar. Nimanidir, masalan, so'zlarning talaffuzi va yozilishini, so'z turkumlarini, so'z qismlarini bir-biriga taqqoslash o'quvchilarning aqliy aktivligini oshiradi. Bunda yana qoidaning ajratilgan belgisini aniq yozib ko'rsatish ham ahamiyatli hisoblanadi. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o'qituvchining savollari yordam beradi. Bu savollar, o'z navbatida, qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi. Qoida ustida kollektiv ishlash bilan birga darslikdan foydalanib, mustaqil ishlash usulini qo'llash ham mumkin. Yangi qoidani o'zlashtirishda o'rganilgan bilimlarga suyaniladi. Buning uchun yangi qoida ilgari o'rganilgan qoidalar bilan bog'lanadi. Bunda qarshi qo'yish yoki taqqoslash usulidan foydalaniladi va o'xshash

tomonlari aniqlanadi. Maslan, tushum kelishigi qo'shimchasining yozilishini o'zlashtirishda u ilgari o'rganilgan qaratgich kelishigi qo'shimchasining yozilishi bilan taqqoslanadi va tushum kelishigi qo'shimchasi otning fe'l tomonidan boshqarilishini bildirishi aniqlanadi. Qoidani bilib olish o'quvchilarda u xaqdagi aniq tasavvurning mavjudligiga bog'liq. Qoida asosida xosil bo'lgan aniq tasavvur so'zlarda ifodalanadi. Shuning uchun o'quvchilardan qoidani quruq yodlab berish talab etilmasligi, balki so'zni tug'ri yozishdagi xususiyatlar aniq material misolida qayta tushuntirilishi lozim.

O'quvchilarning savodxonligini oshirishda yani imloviy xatolar ustida ishlash uchun har xil metod oyinlardan foydalansak bo'ladi. Jumladan <<so'zlarni to'g'ri yoz>> o'yini. Bu o'yinni tashkil etishdan maqsad o'quvchilarni uslubiy xatolarga yo'l qo'ymaslikka o'rgatish hamda yozma va og'zaki nutqini ravon va chiroyli bo'lishiga erishish asosiy omil hisoblanadi. O'qituvchi jumlar chalkash bo'lgan gaplarni proyektor orqali ekranda namoyish qiladi va o'quvchilar jummalarni tog'rillab yozadilar. Masalan, Qizil edi mashinaning yo'l chetidagi rangi. Yo'l chetidagi mashinaning rangi qizil edi. Ba'zi she'rlardagi jumalarda ro'y bergan o'zgarishlar she'riy qofiya yoki ohangdorlik talabi ekanligini ham inobatga olinib, o'quvchilarga tushuntiriladi.

Diktantda yo'l qo'yilgan xato o'quvchi yoshi va sinfidan kelib chiqib, u bilishi zarur deb qaralgan biror mavzuni yaxshi o'zlashtirmagani yoki tushunmaganini bildiradi. Qolaversa, o'quvchi yo'l qo'yayotgan xatoga qarab, uning nutqiy rivojlanish darajasi va muammoli jihatlari haqida xulosa chiqarish mumkin. Tovushlarni almashtirib yoki xato gapiradigan bola, albatta, diktantda ham o'sha so'zlarni xato yozadi. Tazyiq ostida bo'lib, kimdandir yoki nimadandir muntazam qo'rqib yurgan o'quvchi ham so'zlarning oxiridagi harflarni qoldirib ketadi. Xullas, imlo masalasi doimo dolzarb va jiddiy bo'lib kelgan. Shu bois, u pedagogikada hal etilishi shart bo'lgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislar imloviy savodxonlikni shakllantirish uchun imlo qoidalari ustida muntazam ishlab, bir qator ta'limiy diktantlarni o'tkazishni va o'quvchilarning imloviy savodxonlik darajasini muntazam tekshirib, tahlil qilib borishni maslahat beradi. Ammo ular ustida ishlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'yayotgan xatolarni guruhlashtirib olishi zarur. Ona tili darslarida o'quvchilarning ona tili daftarlarini ko'zdan kechirsak, quyidagi xatolarga duch kelamiz:

— grafik xatolar: harf elementlarini tashlab ketish, harflarni tushirib qoldirish, ularning o'rinlarini almashtirib qo'yish va h.k;

— so'z o'zagidagi xatolar: jarangli va jarangsiz undoshlarni almashtirish, yonmayon kelgan bir xil undoshlarning birini tashlab ketish, talaffuzda tushib qoladigan undoshlarni yozuvda ham tashlab ketish;

— so'z va shakl yasovchi qo'shimchalarni xato yozish;

— bo'g'in ko'chirishdagi xatolar;

- bosh harflarni qo‘llashdagi xatolar;
- shevaga oid xatolar.

Xulosa qilib aytganda, imlo qoidalari o‘quvchilarning to‘g‘ri yozishida ham savodxonligini oshirishida ham muhim vazifani bajaradi. Xatolarni tuzatish ustida ham, maktab tajribasiga qarasa har xil ekanligini ko‘ramiz. Bunday jarayonlarni bo‘lmasligi uchun o‘qituvchi ham shakllangan bo‘lishi kerak. Ayrim tajiribali o‘qituvchilar quyidagicha belgilarni qo‘llanadi. Agar so‘zni tog‘ri yoza olmasa, uning tog‘ri shakli o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatiladi. Harfdan xato yuborsa, qizil siyoh bilan ustiga, yoki chap tarafiga yoki o‘ng tarafiga tog‘ri so‘zni va harfni yozib ko‘rsatadi. Ayrim vaqitlarda qizil siyoh bilan xarfning yoki so‘zning tagini chizib qo‘yadi. O‘quvchining o‘zin tuzatishga imkoniyat beradi. So‘ng o‘qituvchi oquvchilarning daftarida ketgan xatolarini hisobga olib, keyingi darsda tahlil etadi. O‘quvchilarning daftarlarini tekshirish faqat to‘g‘ri yozishiga aloqador bo‘lib qolmasdan, ularning tarbiyaviy tarafdin ham kuzatib boradi bunda; daftarini ushlap tutish, tog‘ri, chiroyli, toza yozish ko‘nikmalarini shakllantirish, mehnat sevuchanlik, onglilik, etiborli bolishi. zukkolikka o‘rgatib, ko‘niktirib borishni nazarda tutib ishlash zurrur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva Q va boshqalar, "Savod o‘rganish darslari", Toshkent-1996.
2. U.Jabbarova "Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib ona tilini oqitish.
3. R.Ikromova, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldasheva, D.Shodmonqulova, "4-sinf ona tili" darsligi, Toshkent-2017.
4. A.Pirniyazova, Q.Pirniyazov, K.Bekniyazov, "Boshlang‘ich sinf ona tilini oqitish metodikasi", Toshkent-2018.

BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA OT SO'Z TURKUMI VA UNI O'QITISH METODIKASI

*Orazbayeva Venera Jangabay qizi
Shabatova Rabiqa Janasbay-qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat
pedagogika Institutining "Boshlang'ich
ta'lim" yo'nalishi 3-kurs talabalari
Salieva Aygul Quatbay qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat
pedagogika Institutining "Boshlang'ich
ta'lim" yo'nalishi 4-kurs talabasi
Qoraqolpog'iston, Nukus*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ot so'z turkumi haqida tushunchalar, bilim bilan birgalikda tarbiya berish, boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumini o'qitish metodikasi, har xil didaktik o'yin metodikalarini qo'llash, o'quvchilar bilan guruhlarda ishlash va ularga jamoa bo'lib ishlashni o'rgatish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: So'z turkumlari, ot, metod, didaktik o'yin metodi, ta'lim va tarbiya, guruh, birga ishlash

Yorug' kelajagimizni yaratishda xalqimiz, albatta, yoshlarga, o'sib kelayotgan avlodlarga suyanadi. Shu sababdan ham ta'lim tizimimizda katta yangilanishlar, o'zgartirishlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvar kuni maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishida ta'kidlab o'tganidek:

“Ta'lim-tarbiya — kelajak, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak.”

Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya sohasi isloh qilishni poydevordan, ya'ni boshlang'ich sinflardanoq boshlashimiz lozim. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar ona tili darslarida ko'p duch kelinuvchi mavzu – mustaqil so'z turkumlaridan ot so'z turkumining o'qitilishiga to'xtalib o'tmoqchiman. O'quvchilarga boshlang'ich sinflarda juda yaxshi, mustahkam bilim va tarbiya berilsa bunday o'quvchilar ustozini ishonchini oqlaydigan etuk insonlar bo'lib voyaga yetadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini yaxshi tashkillashtirish katta ahamyat kasb etadi. Unda o'tiladigan so'z turkumlarini va ularni hususyatlarini o'quvchilar har xil didaktik o'yinlar, metodlar yordamida tushintirib borishlari kerak. So'z turkumlari ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi so'zlarning leksik-grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko'ra turli guruhlariga ajratilishi, ya'ni so'z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi. Boshlang'ich

sinflar dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsus tanishtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Otni o'rganishda izchillik:

Otni o'rganishga tayyorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar shaxs-narsalarni va ularning nomi bo'lgan so'zlarni farqlashga o'rganadilar, so'ning leksik ma'nosiga e'tibor ko'proq qaratiladi, ma'nolarini hisobga olgan holda so'zlar masalan qushlar, meva va sabzavotlar, kiyimlar va hokazolarni bildirgan otlarni guruhlash ko'nikmasi shakllantiriladi. So'zlarni leksik ma'nosi asosida guruhlash mashqlari otlarni taqqoslash, o'xshash tomonlarini aniqlash, abstraktlashtirish ko'nikmasini o'stiradi. Shunga qaramay, grammatik tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilar so'zning aniq ma'nosini yetarli bilmaydilar, so'zning leksik ma'nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilarini ham o'zlashtirish zarur," – deya ta'kidlab o'tilgan bugungi kunda ona tili o'qitish metodika fanining asosiy adabiyoti hisoblanmish 2009-yilda nashr etilgan Qosimova va boshqalar ham muallifligidagi "Ona tili o'qitish metodikasi" kitobida.

"Ot" mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'maltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi. Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o'rganish tartibi belgilangan. Boshlang'ch sinflarda otni o'rganish vazifalari quyidagilar:

- 1) "ot" haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish va dastlabki tushinchalarni ham o'rgatish
- 2) kim? so'rog'iga javob bo'lgan (shaxs bildirgan) otlardan nima? so'rog'iga javob bo'lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;

- 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish;
- 4) otlarda son yani otning birlik va ko'likda qo'llanishi bilan tanishtirish;
- 5) otlarni egalik qo'shimchalari bilan to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;
- 6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida tushincha va malaka hosil qilish;
- 7) o'quvchilar lug'atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o'rinli foydalanish malakasini o'stirish;
- 8) so'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilishni o'rgatish

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda o'rgatilib boriladi. Shu bilan birga, "Ot" mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1,2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari yani nimani bildirishi, so'roqlari o'rganiladi, 3- sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4- sinfda otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi. So'z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma'nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma'nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi.

Ot:

- 1) Jonli mavjudotlar: kishi, qush, hayvon, asalari
- 2) Yer va osmonga oid narsalar: quyosh, yulduz, daryo, tog',
- 3) Voqealar yig'in, majlis, tabiat hodisalariga oid: shamol, bo'ron, yomg'ir, momaqaldiroq, belgi-xususiyat ahillik, kuchlilik, samimiyat, harakat-holat uyqu, sevinch, kurash
- 4) O'rin va vaqtga oid: qish, yoz, bahor, joy nomlarini bildiradi
- 5) O'simliklarga oid: paxta, beda, gul, singari so'zlarda qo'llaniladi.

Otlarning grammatik belgilari:

- a) otlar birlik va ko'plikda qo'llanadi,
- b) egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi,
- c) kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko'proq ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi,
- d) hol va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe'l bilan birika oladi.

Otning ma'nolari va grammatik belgilari murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o'quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.

- Otlar oladigan qo'shimchalar haqida qanday ma'lumotlarni bilar edingiz?

- Ot oladigan qaysi qo'shimchalarni bilmas ekansiz? Ularni bilishni xohlaysizmi? Ko'rinib turibdiki, o'qituvchining savoli – o'quvchilar bilish qobiliyatlarini boshqarish vositasi. Savollar qaysi ma'oda yoki vaziyatda qo'llanishiga qarab, o'quvchilarni ilgarilab borishga, bilimlar sari intilishga undaydi, ularni fikrlash darajasini oshiradi. O'quvchilar “ Aqliy hujum” orqali fikrlarning qadr –qimmatini, umumiy tushunish va tasavvurni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishini anglab boradilar. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullardan biri “Klaster” usulidir. Klaster so'zi bog'lam ma'nosini bildiradi. Klasterlardan darsning anglash va fikrlar bosqichlarida foydalanish mumkin. Bu metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar tog'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilma. Bu metod mavzuning o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'inlaydi. “ Klaster” va "baliq skleti" metodlaridan o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash va guruh-guruh bo'lib ishlashda foydalanish mumkin. Mazkur metodlar o'rganilayotgan til hodisasini umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. “Klaster” da sinf yozuv doskasiga yoki katta varaqqa kalit so'zlar, so'z birikmalari yoki gaplar yoziladi va kalit so'lar til hodisasining aloqadorligiga qarab bog'lab boriladi. Klaster tuzishda, agar u doska yoki katta varaqda sinf jamoasi bilan bajarilayotgan bo'lsa, barcha o'quvchilarning ishtirok etishi shart.

Bulardan tashqari "Ot so'z turkimini tez topish" o'yinini tashkillashtirish ham mumkin. Masalan: Avvalo o'quvchilarni kichik gurublarga ajratib olish lozim. Har bir guruh uchun varoqlarda beshtadan so'zlar yozilgan bo'lib ularni ichida ikki yoki hohishga qarab birnecha ot va boshqa so'z turkumlari berilgan bo'ladi. O'quvchilar so'zlarni topib belgilaydi so'ng o'rniga o'tirib navbatni sherigiga beradi. Qaysi jamoa birinchi bo'lsa va so'zlarni ham to'g'ri belgilagan bo'lsa shu guruh g'olib hisoblanadi va baholanadi. O'quvchilar bu o'yin metodi orqali chaqqonlikka, topqirlikka, ot so'z turkumiga oid so'zlarni boshqa so'z turkumlaridan ajratishga o'rgatiladi va albatta o'quvchilar jamoa bo'lib ishlashni o'rganib boradi.

Keyingi o'yin metodi "Arhani bezash". Bu o'yinni dars paytida guruhlariga ajratgan holatta yoki uy vazifasini so'rashda qo'llash mumkin bo'lib hisoblanadi. Buning qog'ozga katta archa va uni bezaklari ham yasaladi. Bezaklarini taqmasdan ort qismiga "Ot" mavzusiga oid savollar yoziladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Masalan uch guruh uchun uchta archa va o'yinchoqlari ortiga savol yozilgan qog'ozlar kerak bo'ladi. Har bir guruhdan bittada o'quvchi chiqib ketma-ketlikda savollarni o'qib javob beradilar. Kimda - kim savolga javob bera olmasa o'sha guruhni archasiga bezak yelimlanmaydi. O'yin so'ngida qaysi guruhni archasi chiroyli yasatilgan bo'lsa o'sha guruh g'olib deb topiladi va baholanadi. Bu o'yin orqali o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishi va intilishi ortadi. O'quvchilar savollarga to'g'ri javob berishga harakat qiladi va mavzuni yaxshi o'zlashtiradi. Diqqati jamlanadi va eslab qolish qobiliati ham ortib boradi.

O'quvchi matndagi so'zlarning turkumlariga to'g'ri ajrata olsa, gap bo'laklarini aniqlashda ham qiynalmaydi. Demak, bu tahlil o'z-o'zidan sintaktik tahlil bilan bog'lanadi. So'z turkumlarining mohiyatiga to'la tushunmasdan turib, sintaktik tahlil vaqitida gapning bosh bo'laklari bilan grammatik munosabatga kirishmaydigan so'zlar yani bo'laklarni aniqlash mumkin emas. So'z turkumlari bo'yicha tahlil, so'z tarkibi bo'yicha o'tkaziladigan tahlil kabi, morfologik tahlilning bir ko'rinishi bo'lib, u maktab dasturidagi "So'z turkumlari" mavzusining masalalarini qamrab oladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ot yaxlit holda o'rganiladi va uni o'rganish o'quvchilar shu so'z turkumining belgilarini, vazifasini o'zlashtirishiga, shuningdek, ularda kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish ko'nikmasini shakllantirishga qaratiladi. Kelajagimiz poydevori bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga barcha darslarni yaxshi o'zlashtirib a'lo baholarga o'qishiga va albatta Yangi O'zbekistonni o'z qo'llari bilan yaratishga katta hissa qo'shishiga ishonch bildirib qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektordagi nutqi.
2. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, Noshir, 2009.-yil
3. Sog'lom avlod - O'zbekiston kelajagi, Toshkent, O'zbekiston Bolalar jamg'armasi nashri 2001-yil
4. To'raqulov X.A. Zamonaviy kompyuter tarmoqlari bo'yicha multimediali elektron o'quv qo'llanma yaratish texnologiyasi Uzluksiz ta'lim 2011-yil
5. T.G'afforov va boshqalar Ona tili 1-sinf, Toshkent,Sharq".nashiryoti 2022-yil
6. K.Qosimova va boshqalar Ona tili 2-sinf,, T.:“Cho'lpon”, 2022-yil

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TINISH BELGILARINING QOLLANILISHINI O'RGATISH.

*Mambetnazarova Gozzal Orazbayevna
Shabatova Rabig'a Janasbay-qizi
A'jiniyoz nomidagi Nukus Davlat
pedagogika Institutining "Boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari.
Qoraqolpog'iston, Nukus*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozishida tinish belgilarini tog'ri ishlata olmaslik sabablari, o'quvchilardan diktant ishi olish paytida vergul va nuqtani tog'ri qoyishni o'rgatish. Punktuciya-yozuv orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri ekanligini o'quvchilarga tushintirish.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, tinish belgilari, vergul, nuqta, undov, so'roq belgilari.

Kelajak - bu yoshlarning qo'lida, demak, yoshlar ilimli, bilimli bo'lishi shart va zarur. Uning uchun bolalarni boshlang'ich sinfga o'tganidan boshlab tog'ri ta'lim va tarbiya berishimiz lozim. Dastlab o'quvchilarni tog'ri yozishni va ifodali oqishni o'rgatishimiz kerak. Tog'ri yozishda tinish belgileri yani punktuatsiyaning o'rni juda katta.

Puntuatsiya- bu tinish belgilarining tog'ri ishlatilishi haqidagi qoidalar yig'indisi. Punktuciya yozuv orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi. Boshlang'ich sinflarda asosan to'rtta tinish belgisi o'rgatiladi bular: ga'p oxirida nuqta, so'roq, undov, belgisi hamda uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi va uni ko'plab hayotiy misollar orqali kengroq tushintirishimiz mumkin. Tinish belgilari asosan muayyan tilda yozma nutqni tog'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda uni ixshamlashta, yozma nutq qismlarining o'zaro mantiqiy grammatik munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tinish belgilarini o'rgatish, bu bo'yicha ko'nikmalar paydo etish ahamiyatli ishlardan biri. Sababi, tinish belgilarin o'rgatish orqali ularning intonatsiya jihatdan tog'ri gapirish, tog'ri yozish ko'nikmalari rivojlanadi. Bolalar maktabga kelib gab bilan ishlashadi, har bir gapning oxiriga nuqta qoyishi kerakligi eslatib o'tiladi. Shuningdek, yozishda birinchi navbatda nuqta bilan tamomlanadigan solardan boshlab o'rgatiladi. Shuning uchun, eng dastlab bolalar nuqta bilan, undan keyin esa so'roq belgisi bilan tanishadi. Bu faqat amaliy ishning jarayonida ko'rsatilib, gapirganda bir gap ikkinchi gapdan oz pauza bilan bo'linib turadiganligi, tovush ozgina pasangroq aytilishini o'qituvchi o'zi ko'rsatadi. Yozishda nuqta belgisi bilan belgilanadi. Bu gapning tamomlanganini ko'rsatadi. Bu

tayyorlangan tizim bo'yicha ko'rsatiladi va o'quvchilarning o'zlariga aytirib, o'rgatilib boriladi. O'qitish jarayonida o'quvchilar nuqta, so'roq belgisi, ko'p nuqta, vergul, undov belgilari bilan tanishadi. Sodda bir necha topshiriqlardan keyin ularda ko'nikma paydo bolib, ularning ayirmasini tushinib boradi.

Tinish belgilari gap qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Punktatsiya, bir tomondan yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi. Tinish belgilarining qo'llanilishi gaplarning mazmuni, grammatik qurilishi va ohangiga ko'ra bo'linadi. Ayrim tinish belgilarning qo'llanilishi gapning mazmuni bilan bog'liq bo'ladi. Jumladan: ifodalonmoqchi bo'lgan mazmun tugallangan bo'lsa, nuqta, undov, so'roq belgisi, qo'yiladi. Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar ko'p nuqta yoki qavslar bilan ifodalaydi.

Nuqta - eng ko'p qo'llanuvchi tinish belgilarining biri. Uning asosiy vazifasi xabar ma'nosini anglatuvchi muayyan bir fikrning (gapning) tugallanganligini ko'rsatishdir. Nuqta-gap oxirida qo'llanuvchi, yakka va qo'sh qo'llanuvchi, bir elementli, ayiruvchi tinish belgisidir. Uning qo'llanilishi asosan mantiqiy grammatik printsipga asoslanadi. Masalan: Bog'da chiroyli kapalak guldan gulga qonardi. Siz ilimli kishilarni ulug'lang.

So'roq - biror narsa haqida so'rash maqsadini bildirgan gap so'roq gap deyiladi. So'roq gapning oxiriga so'roq (?) belgisi qo'yiladi. Bu belgi gap oxirida qo'llanuvchi asosiy belgilardan biri hisoblanadi. Uni O'zbek yozuvchisi va dramaturigi Fitrat shunday tariflaydi: (?) So'rash belgisidir. So'rash gaplardan keyin qo'yiladi. Masalan: Gaplar qanday bo'laklardan tuzilgan? Siz paxtani nimaga o'xshatgingiz keladi?

